

**O‘ZBEKISTON FANLAR AKADEMIYASI O‘ZBEK TILI,
ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.Fil.46.03
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON FANLAR AKADEMIYASI O‘ZBEK TILI,
ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI**

ANDANIYAZOVA DILRABO RUZIQULOVNA

**O‘ZBEK TILIDA MUVAQQAT ONOMASTIK BIRLIKLARNING
BADIY-ESTETIK XUSUSIYATLARI**

10.00.01 – O‘zbek tili

**FILOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Contents of dissertation abstract of doctor of (DSc) philological sciences

**Оглавление автореферата диссертации доктора (DSc)
по филологическим наукам**

Andaniyazova Dilrabo Ruziqulovna

O‘zbek tilida muvaqqat onomastik birliklarning badiiy-estetik xususiyatlari 3

Andaniyazova Dilrabo Ruzikulovna

Literary and aesthetic features of temporary onomastic units in the Uzbek language..... 37

Анданиязова Дилрабо Рузикуловна

Художественно-эстетические особенности окказиональных ономастических единиц в узбекском языке..... 73

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

List of published works
Список опубликованных работ 78

**O‘ZBEKISTON FANLAR AKADEMIYASI O‘ZBEK TILI,
ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.Fil.46.03
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON FANLAR AKADEMIYASI O‘ZBEK TILI,
ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI**

ANDANIYAZOVA DILRABO RUZIQULOVNA

**O‘ZBEK TILIDA MUVAQQAT ONOMASTIK BIRLIKLARNING BADIY-
ESTETIK XUSUSIYATLARI**

10.00.01 – O‘zbek tili

**FILOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.DSc/Fil537 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbek tili, adabiyoti va folklori institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengashning (www.tai.uz) veb-sahifasiga va "ZiyoNet" axborot-ta'lim portali (www.ziyounet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi: Mahmudov Nizomiddin Mamadaliyevich
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponenlar: O'razboyev Abdulla Durdibayevich
filologiya fanlari doktori, professor

Mamatov Abdi Eshonqulovich
filologiya fanlari doktori, professor

Umurzoqova Marhabo Egamberdiyevna
filologiya fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot: Urganch davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/30.12.2019.Fil.46.03 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "4" XII soat 10⁰⁰ daqi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100060, Toshkent shahri, Shahrisabz tor ko'chasi, 5-uy. Tel: (871) 233-36-50; faks: (871) 233-71-44; e-mail: uztafi@academy.uz).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining asosiy kutubxonasida tanishish mumkin (39 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100100, Toshkent shahri, Ziyolilar ko'chasi, 13-uy. Tel: (99871) 262-74-58).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "20" noyabrda tarqatildi.

(2025-yil "20" noyabrdaqi 13 raqamli reyestr bayonnomasi).



M.X. Hakimov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi
o'rinbosari, filologiya fanlari doktori,
professor

A.M. Hasanov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi, filologiya fanlari doktori

D.S. Xudayberganova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filologiya
fanlari doktori, professor



KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida tilning shaxs dunyoqarashi, tafakkuri bilan aloqador jihatlarini o'rganayotgan yangi yo'nalishlarning yuzaga kelishi fan oldiga muhim vazifalarni qo'ymoqda. Badiiy matnning kognitiv-semantik, lingvopoetik, lingvopragmatik, lingvomadaniy xususiyatlarini tadqiq qilish orqali turli til birliklarining badiiy-estetik imkoniyatlarini belgilash hamda matn muallifining tildan foydalanish darajasini aniqlash ehtiyoji kuchaymoqda. Bu esa til birliklarining badiiy matndagi o'ziga xos jihatlarini o'rganish zaruratini keltirib chiqaradi.

Dunyo tilshunosligida onomastik birliklarning xalq tarixi, madaniyati va tilining ko'p asrlik tajribasi va an'analarini o'zida aks ettirishi, badiiy matnda esa poetik aktuallashtirish imkoniyati juda yuqori bo'lgan vosita sifatida emotsional-ekspressivlikni ta'minlashga xizmat qilishi e'tirof etilgan. Tilshunoslikning yangi ilmiy konsepsiyalari asosida nomlarning badiiy matni shakllantirishdagi turli vazifalarini aniqlash, shu asosda ularning badiiy-estetik xususiyatlarini ochib berish hamda mazkur birliklarni fanlararo mushtarak tamoyillar asosida tekshirish tilshunoslikning muhim vazifalaridan hisoblanadi.

O'zbek tilshunosligida onomastik birliklar turli yondashuvlar asosida o'rganilgan. Biroq muvaqqat onomastik birliklarning badiiy-estetik xususiyatlari maxsus tadqiq qilinmagan. Muvaqqat onomastik birliklar muallif tomonidan alohida badiiy maqsadlarni ifodalash uchun yaratiladi va ular poetik aktuallashtirish imkoniyati yuqoriligi bilan ajralib turadi. Bunday birliklar standart onomastik tizimdagi nomlarga nisbatan kuchli ekspressivlikka ega bo'lib, hissiy ta'siri va estetik qiymati bilan matnning ta'sirchanligini sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, muayyan matn doirasida idrok qilinadi va bir marta qo'llanishga mo'ljallanadi. Muvaqqat onomastik birliklarning o'ziga xos vazifalari, xususiyatlari mavjudki, ular o'zbek tilshunosligida hali monografik aspektda o'rganilmagan. Respublikamiz rahbari Sh.M.Mirziyoyevning "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni milliy tilimizni zamonaviy tadqiq usullarida o'rganishni taqozo qiladi. Shu nuqtayi nazardan muvaqqat onomastik birliklar orqali yuzaga keladigan badiiy-estetik holatlarni ilmiy-nazariy jihatdan chuqur tadqiq etish mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida", 2019-yil 21-dekabrda PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatida nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 20-oktyabrdagi PF-6084-son "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari, 2025-yil 20-oktyabrdagi PQ-308-son "Davlat tilini yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida amalga oshirilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi¹. Xalqaro miqyosda onomastik birliklarning lingvopoetik, lingvomadaniy, lingvopragmatik, sotsiopragmatik xususiyatlariga bag'ishlangan tadqiqotlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalarida, jumladan, Xalqaro onomastika kengashi (ICOS), Amerika onomastika jamiyati (ANS), Yevropa onomastika jamiyati (SLO), Rossiya onomastika markazi, Germaniyaning Leypsig-Nemis tili ilmiy-tadqiqot instituti, Sorbonna universiteti (Fransiya), Pekin universiteti (Xitoy), Voronej pedagogika universiteti (Rossiya), Ege universiteti Turk dunyosi tadqiqotlari instituti (Turkiya), Donesk davlat universiteti (Ukraina), Qozoq milliy universiteti (Qozog'iston), O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti hamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti (O'zbekiston)da olib borilmoqda.

Jahon va o'zbek tilshunosligida onomastik birliklarning badiiy-estetik xususiyatlarini o'rganish va shu orqali til imkoniyatlarini belgilash borasidagi tadqiqotlar natijasida quyidagi ilmiy yutuqlarga erishilgan: muvaqqat onomastik birliklarning badiiy matndagi vazifalari ochib berilgan (Frayburg universiteti), onomastik birliklarning lingvopoetik, lingvokulturologik xususiyatlari asoslangan (Donesk davlat universiteti), yozuvchilarning onomastik birliklarni qo'llash mahorati yoritilgan (Sophia University; University of Tokio, Yaponiya), muvaqqat onomastik birliklarning uslubiy vazifalari yoritilgan (Qozon federal universiteti), badiiy matndagi onomastik birliklarning lingvopoetik xususiyatlari aniqlangan (O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti), shuningdek, o'zbek mumtoz adiblari asarlari onomastik ko'laminig o'ziga xos jihatlari ochib berilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti).

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Tilshunoslikning muhim masalalaridan bo'lgan onomastik birliklar tadqiqi dunyo tilshunoslari e'tiboridan tushmay kelmoqda. Bu borada A.A.Reformatskiy, S.P.Vaynshteyn, V.A.Nikonov, N.V.Podolskaya, E.M.Murzayev, V.N.Toporov, Y.A.Karpenko, A.V.Superanskaya, A.E.Mitroshkina, V.U.Maxpirov, E.U.Omakayeva kabi qator olimlar o'zlarining samarali ishlari bilan ushbu soha taraqqiyotiga munosib hissa qo'shdilar². Keyingi yillarda onomastik birliklar turli aspektlarda tadqiq qilinmoqda. I.V.Vasilyeva, E.N.Mikailova, O.V.Sheverinova va boshqalar onomastik birliklarning stilistik, lingvomadaniy, lingvopragmatik, sotsiomadaniy xususiyatlariga to'xtalgan bo'lsa³, A.Bem, V.N.Mixaylov, E.B.Magazanik,

¹ Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi quyidagi manbalar asosida amalga oshirildi: www.utexas.edu, www.berkeley.edu, www.northwestern.edu, www.bu.edu, www.ecu.edu.au, www.unice.fr/en, www.u-bordeaux.com, www.lang.ox.ac.uk, www.english.pku.edu.cn, www.sophia.ac.jp/eng, www.u-tokyo.ac.jp/en, www.bsu.edu.az, www.msu.ru, www.bashedu.ru, www.kaznu.kz, www.navoiy-uni.uz.

² Реформатский А.А. Топономастика как лингвистический факт. "Топономастика и транскрипция". – М., 1964; Вайнштейн С.П. Личные именные термины родства и прозвища у тувинцев // Ономастика. – М.: Наука, 1969; Суперанская А.В. Общая теория имени собственного. – М.: Наука, 1973; Никонов В.А. Имя и общество. – М.: Наука, 1974; Митрошкина А.Э. Бурятская антропонимия. – Новосибирск, 1987; Подольская Н.В. Словарь русской ономастической терминологии. – М., 1988; Махпиров В.У. Имена далеких предков. – Алматы, 1997; Омакаева Э.У. Триада "язык – культура – этнос" сквозь призму антропонимии: калмыцкие личные имена в контексте буддийской культуры // Вестник Калмыцкого института гуманитарных исследований РАН. – №2. – М., 2008.

³ Васильева И.В. К стилистике имени собственного: ономастические приёмы // ResLinguistica. – М.: Academia, 2000; Xalqov F.R. Azərbaycan dilinin folklor onomastikasi. Filol. elm. d-ri. ... diss. – Bakı: Az.MEA, 2001; Чигирева А.В., Бондарь В.А. Стилистическая функция антропонимов в романах Ч.Диккенса // Восточноукраинский лингвистический сборник: сб.науч.тр. Вып.7. – Донецк, 2001; Hüseynova H.E. Səməd Vurğunun bədii əsərlərində onomastik vahidlərin linqvistik xüsusiyyətləri: Filol. elm. nam. ... diss. – Bakı: ADPU, 2002; Mikayilova Ə.N. Onomastik vahidlərin üslubi imkanları. (XIX əsrin ikinci yarısında yaranmış nəsr əsərlərinin materialları əsasında linqvistik tədqiqat). "Məmar Nəşriyyat–Poliqrafiya" MMC. – Bakı, 2008.; Шеверина О.В. Социопрагматический подход к исследованию литературных онимов. – М.: Ученые записки, 2018.

L.I.Kolokolova, S.I.Zinin, D.Lamping, G.B.Bakastova, C.Dolny, V.M.Kalinkin kabi olimlar nomlarning badiiy matndagi vazifalarini yoritishgan⁴. Shuningdek, tilshunoslikda muvaqqat onomastik birliklarga bag'ishlangan qator taqdqiqotlar olib borilgan bo'lib, ularda mualliflar tomonidan yaratilgan nomlarning o'ziga xos xususiyatlariga e'tibor qaratilgan⁵.

O'zbek tilshunosligida E.Begmatov, Z.Do'simov, N.Mahmudov, T.Nafasov, G'.Sattorov, I.Xudoynazarov, D.Xudoyberganova, D.Yo'ldoshevlarning tadqiqotlarida onomastik birliklar turli aspektlarda o'rganilgan⁶. R.Qo'ng'urov va R.Mo'minovalarning o'zbek badiiy adabiyotida va satirik jurnallarda qo'llangan antroponimlarning uslubiy xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan maqolasida yozuvchi va shoirlar tomonidan yaratilgan antroponimlar matnning ta'sir kuchini orttirishga xizmat qilishi aytiladi⁷. E.Qilichev esa o'z tadqiqotlarida badiiy matndagi antroponimlarga e'tibor qaratgan bo'lib, olim S.Ayniy ijodiga mansub kishi nomlarining uslubiy-semantik xususiyatlarini chuqur tadqiq qilgan⁸.

Badiiy matndagi onomastik birliklar, avvalo, ijodkorning badiiy niyatini yoritishga, emotsional-ekspressivlikni yuzaga keltirishga hamda matnni shakllantirishga xizmat qiladi. N.Mahmudov qayd etganidek, "Har qanday san'at asarida, xususan, badiiy asarda voqeaning ham, undagi lisoniy tasvirning ham kutilmaganligi, favquloddaligi, ohorliligi

⁴ Бем А. Личные имена у Достоевского // Сборникъвъ честь на проф. / Л.Милетичъ. – София, 1933; Михайлов В.Н. Собственные имена персонажей русской художественной литературы XVIII и первой половины XIX в., их функции и словообразование: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 1956; Магазаник Э.Б. Поэтика имен собственных в русской классической литературе: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Самарканд, 1967; Колоколова Л.И. Ономастика в художественной речи А.П.Чехова: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Киев, 1970; Зинин С.И. Имена персонажей в художественной литературе и фольклоре / С.И. Зинин, А.Г. Степанов // Антропонимика. – М., 1970. – С. 330–355; Lamping D. Der Name in der Erzählung: Zur Poetik des Personennamens. – Bonn, 1983; Бакастова Г.В. Имя собственное в художественном тексте // Русская ономастика. – М., 1984. – С. 23–27; Dolny C. Literarische Funktionen der Personeneigennamen in den Novellen und Erzählungen von I.S. Turgenev. Bern e.a. 1996 // Slavica Helvetica 51; Калинин В.М. Поэтика онама. – Донецк, 1999; Shu muallif. Теоретические основы поэтической ономастики: Автореф. дисс. ... д-ра филол. наук. – Киев, 2000.

⁵ Касьяненко Н.Е. Отонимные окказионализмы и окказиональные онимы в русском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Днепропетровск, 1991; Бонджолова В.Ц. Окказионализми от собствени имена. В Състояние и проблеми на българската ономастика. – Велико Търново: Изд-во Великотър университет. 2001. – С. 228–235. Shu muallif. Окказиональные трансформации антропонимов как инвективная лексика. Медиалингвистика, 7 (3), 357–367. 2020. <https://doi.org/10.21638/spbu.22.2020.30>; Шебалов Р.Ю. Ономастическая игра в художественном тексте (на материале ранних рассказов А.П.Чехова): Автореф. дисс. ... канд. фил. наук. – Екатеринбург, 2004; Фомин А.А. Литературная ономастика в России: Итоги и перспективы // Вопросы ономастики. – №1. – Екатеринбург: Издательство Уральского университета. 2004. – С. 108–120; Пулина Е.А. Окказиональные имена собственные в романе Дж. Джойса "Улисс" и их межъязыковая передача // Пермский государственный фармацевтический вестник. 2007. – №3. – С. 195–198; Астафьев А.Ю. Художественные функции окказионализмов: Дисс. ... канд. филол. наук. – М., 2007; Яковенко Н.С. О некоторых особенностях окказиональных антропонимов в английских романах В.В. Набокова // МНКО. 2011. – №2. – С. 48–50.

⁶ Бегматов Э. Антропонимика узбекского языка: Автореф. дисс. ... канд. фил. наук. – Ташкент, 1965; Shu muallif. Антропонимияни тадқиқ қилишнинг социолінгвистик аспекти // Ўзбек тили ва адабиёти. 2011. – №4. – Б. 23–30; Дўсимов З. Хоразм топонимлари. – Тошкент: Фан, 1985; Сатторов Ф. Ўзбек исмларининг туркий қатлами: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1990; Нафасов Т., Нафасов Ш. Атоқли отларга хос умумий хусусиятлар // Жой номлари – халқ тили ва маданиятининг нодир мероси. – Навоий, 1998; Худойназаров И. Антропонимларнинг тил луғат тизимидаги ўрни ва уларнинг семантик-услубий хусусиятлари: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1998; Махмудов Н. Маърифат манзиллари. – Тошкент: 1999; Shu muallif. Тил тилсими тадқиқи. – Тошкент: Mumtoz so'z, 2017; Худойберганова Д. Ўзбек тилидаги бадий матнларнинг антропоцентриқ таъкини: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2015; Shu muallif. Лингвостилистиканинг тадқиқ объекти хусусида / Ўзбек тилшунослигининг долзарб муаммолари. – Тошкент, 2018. – Б. 60–65; Д.Юлдашев. Атоқли отларнинг антропоцентриқ тадқиқи: Филол. фан. д-ри (DSc) ... дисс. – Тошкент, 2021.

⁷ Кунгуров Р., Муминов Р. Собственные имена в языке художественной литературы / Ономастика Узбекистана. – Ташкент, 1989. – С. 124–125.

⁸ Қиличев Э. Айний асарларидаги антропонимларнинг стилистик хусусиятлари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1978. – №4. – Б. 25.

mutlaqo ayricha ahamiyatga molik, mazkur sifatlarga sohiblik badiiy matn rasoligining azaliy o‘lchovlaridan biri bo‘lib kelgan”⁹.

Darhaqiqat, badiiy asarda kutilmaganlik – bu nafaqat asar voqealaridagi tasvirlarda, balki turli holatlarda namoyon bo‘ladi. Masalan, muvaqqat onomastik birliklarning yuzaga kelishi ko‘pincha ana shu kutilmaganlik va favquloddalik talabidan kelib chiqadi. Ular matnda ironiya, parodiya, komik effekt, obrazlilik, emotsional-ekspressivlik hamda jozibadorlikni yuzaga keltiradi va shu orqali o‘quvchini jalb qiladi. Shu ma’noda N.Mahmudovning yuqoridagi fikrlari muvaqqat onomastik birliklarni tahlil qilishda muhim asos bo‘la oladi. Chunki muvaqqat nomlar badiiy kutilmaganlik asosida, ya’ni yangicha ifoda yaratish orqali vujudga keladi.

Umuman, o‘zbek tilida muvaqqat onomastik birliklarning badiiy-estetik xususiyatlari maxsus tadqiq etilmaganligi ushbu mavzuni ilmiy-nazariy jihatdan chuqur o‘rganishni taqozo etadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot rejaları bilan bog‘liqligi. Tadqiqot O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti O‘zbek tili yo‘nalishi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “O‘zbek tilshunosligining zamonaviy yo‘nalishlari: muammo va yechimlar” mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi muvaqqat onomastik birliklarning badiiy-estetik xususiyatlarini yoritishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

muvaqqat onomastik birliklarning bir marta qo‘llanishga moslanganlik, matnga bog‘liqlik, anormallik, ta’sirchanlik, individuallik, ramziylik, ko‘nikilmaganlik kabi xususiyatlarini dalillash;

muvaqqat onomastik birliklarning badiiy matnning estetik idrok etilishini yanada qulaylashtirishi, adabiy asarning g‘oyaviy mazmuni va muallif badiiy maqsadini yuzaga chiqarishga xizmat qilishi, matnlararo aloqadorlikni ta’minlashi va obrazlilikni yuzaga keltirishi kabi vazifalarni bajarishini asoslash;

o‘zbek milliy onomastika an‘analari asosida yuzaga kelgan muvaqqat onomastik birliklarning, shuningdek, o‘zbek milliy onomastika an‘analariga mos kelmaydigan nomlarning muallif badiiy niyatiga ko‘ra hosil qilinishini asoslash, ularning real nomlardan farqini ochib berish;

muvaqqat nomlarning yuzaga kelishida onomastik transformatsiya, onomastik kontaminatsiya, badiiy tarjimaning ahamiyatini, ularning matnda namoyon bo‘lishini asoslash;

muallifning subyektiv munosabatini ifodalovchi muvaqqat onomastik birliklarning badiiy-estetik xususiyatlarini ochib berish.

Tadqiqotning obyektı sifatida badiiy matndagi muvaqqat onomastik birliklar tanlangan.

Tadqiqotning predmetini o‘zbek tilidagi muvaqqat onomastik birliklarning badiiy-estetik xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotni amalga oshirishda tavsiflash, tasniflash, qiyoslash, leksik-semantik usullardan, lingvopoetik tahlil tamoyillaridan foydalanildi.

⁹ Mahmudov N. Badiiy matnda aldangan kutilganlik // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2025. – №2. – B. 3–13.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

muvaqqat onomastik birliklarining bir marta qo‘llanishga moslanganlik, matnga bog‘liqlik, anormallik, ta’sirchanlik, individuallik, ramziylik, ko‘nikilmaganlik kabi xususiyatlari dalillangan;

muvaqqat onomastik birliklarning badiiy matnning estetik idrok etilishini yanada qulaylashtirishi, adabiy asarning g‘oyaviy mazmuni va muallif badiiy maqsadini yuzaga chiqarishga xizmat qilishi, matnlararo aloqadorlikni ta’minlashi va obrazlilikni yuzaga keltirishi kabi lingvopoetik vazifalarni bajarishi asoslangan;

o‘zbek milliy onomastika an‘analari asosida yuzaga kelgan *Salomobod*, *Donishqishloq*, *Xaxisxo‘ja*, *Tuproqbibi* kabi muvaqqat onomastik birliklarning, shuningdek, o‘zbek milliy onomastika an‘analariga mos kelmaydigan *Xon Man Men*, *Men Xon Man*, *Falonchiyan*, *Turobadze*, *Gugushidze*, *Faloniya*, *Qahratoniya* singari nomlarning muallif badiiy niyatiga ko‘ra hosil qilingani asoslanib, ularning real nomlardan farqi ochib berilgan;

onomastik transformatsiya, onomastik kontaminatsiya, badiiy tarjimalar asosida yuzaga kelgan nomlarning matndagi ahamiyati yoritilgan;

muvaqqat onomastik birliklarning baholash vazifasi *Manguqut*, *Tongyorug‘*, *Manguhayot*, *Tongli*, *Quvnoqboy*, *Quyoshiston*, *Salomobod* kabi ijobiy ma’no hamda *Xaxisxo‘ja*, *Qog‘oz Bozov*, *Yepto‘ymasov*, *G‘iybatillo* singari salbiy ma’no ifodalovchi muvaqqat nomlar orqali ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

muvaqqat onomastik birliklarning badiiy-estetik xususiyatlarini o‘rganish natijasida olingan xulosalar o‘zbek tilining badiiy imkoniyatlarini yanada kengroq yoritishga imkon berishi ilmiy-nazariy jihatdan asoslangan;

muvaqqat onomastik birliklarning lingvopoetik mohiyati matnda aniq namoyon bo‘lishi, shu nuqtayi nazardan mazkur birliklarni matn doirasida o‘rganish maqsadga muvofiq ekanligi asoslangan;

ijobiy hamda salbiy ma’no ifodalovchi muvaqqat onomastik birliklar, ularning badiiy-estetik xususiyatlarining qiyosiy tahlili o‘ziga xos jihatlarni namoyon qilishi dalillangan;

muvaqqat onomastik birliklar badiiy matnda poetik aktualashish imkoniyati juda yuqori bo‘lgan muhim vositalardan ekanligi, shuningdek, badiiy matnni shakllantirishda alohida ahamiyat kasb etishi ilmiy jihatdan asoslangan;

muvaqqat onomastik birliklarning komik tasvir vositasi bo‘la olishi, matnlararo aloqadorlik yaratishdagi ishtiroki, umuman, badiiy matndagi imkoniyatlari benihoya keng va rang-barang ekanligi asoslab berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo‘yilgan muammoning aniqligi, nazariy ma’lumotlarni berishda asosiy ilmiy manbalarga tayanilganligi, tarkibida muvaqqat onomastik birliklar mavjud bo‘lgan badiiy matnlar tilshunoslikning zamonaviy tahlil usullari vositasida amalga oshirilganligi, xulosalarning zamonaviy lingvistik tahlil metodlari orqali asoslanganligi, nazariy qarashlar va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, mavzuning jahon tilshunosligining eng so‘nggi ilmiy konsepsiyalari asosida o‘rganilganligi, tadqiqot metodologiyasining mukammalligi, olingan natijalarning keng muhokamadan o‘tkazilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Dissertatsiya natijalarining ilmiy ahamiyati muvaqqat onomastik birliklarning badiiy matndagi vazifalari borasidagi

qarashlarni takomillashtirishda, lingvopoetika, matn tilshunosligi, lingvokulturologiya doirasida olib borilayotgan tadqiqotlarni yangi nazariy ma'lumotlar bilan boyitishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, uning materiallaridan lingvopoetika, matn tilshunosligiga oid darslik, o'quv qo'llanmalarini yaratishda; oliy o'quv yurtlari filologiya yo'nalishida "Leksikologiya", "Stilistika", "Nutq madaniyati", "Lingvopoetika", "Badiiy matnning lingvistik tahlili" fanlari bo'yicha ma'ruza, seminar mashg'ulotlarini tashkil qilishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'zbek tilida muvaqqat onomastik birliklarning badiiy-estetik xususiyatlarini o'rganish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

o'zbek milliy onomastika an'analari asosida yuzaga kelgan *Salomobod, Donishqishloq, Xasisxo'ja, Tuproqbi* kabi muvaqqat onomastik birliklarning, shuningdek, o'zbek milliy onomastika an'alariga mos kelmaydigan *Xon Man Men, Men Xon Man, Falonchiyan, Turobadze, Gugushidze, Faloniya, Qahratoniya* singari nomlarning muallif badiiy niyatiga ko'ra hosil qilinishi, ularning real nomlardan farqi yoritilgan xulosalaridan OT-F1-78 raqamli "Hozirgi globallashuv davrida o'zbek tili, uning tarixiy taraqqiyoti va istiqbollari (vazifaviy uslublar tahlili asosida)" mavzusidagi (2017-2020) fundamental loyihada foydalanilgan (Fanlar akademiyasining 2025-yil 3-iyuldagi 3/1255-1634-son ma'lumotnomasi). Natijada fundamental loyihaning o'zbek tilining badiiy uslubi taraqqiyoti haqidagi qismlarining yangi tushunchalar va terminologik birliklar bilan boyitilishiga erishilgan;

muvaqqat onomastik birliklarning ramziylik, matn bilan bog'liqlik, anormallik, ijodiylik, ta'sirchanlik va individuallik kabi asosiy xususiyatlari va ularning badiiy matnni shakllantirishdagi o'rni haqidagi xulosa va tavsiyalardan; nom hamda jamiyat munosabatlari in'ikosida antroponim va toponimlarning o'rniga oid ilmiy-nazariy fikrlardan IL-21071156 raqamli "Antropotsentrik tilshunoslik terminlari izohli lug'atini tuzish va nashr qilish" (lug'atning mobil ilovasi va veb-saytini yaratish) mavzusidagi (2021-2022) innovatsion loyihada foydalanilgan. (Fanlar akademiyasining 2025-yil 3-iyuldagi 3/1255-1634-son ma'lumotnomasi). Natijada zamonaviy o'zbek tilshunosligi onomastik birliklarning lingvopoetik, lingvomadaniy xususiyatlari bilan bog'liq terminlar bilan boyitilishida tadqiqot ishi zaruriy manba vazifasini o'tagan;

muvaqqat onomastik birliklarning badiiy matnning estetik idrok etilishini yanada qulaylashtirishi, adabiy asarning g'oyaviy mazmuni va muallif badiiy maqsadini yuzaga chiqarishga xizmat qilishi, matnlararo aloqadorlikni ta'minlashi va obrazlilikni yuzaga keltirishi kabi vazifalari, shuningdek, o'zbek xalqining dunyoqarashi, turmush tarzi, qadriyatlarini, fe'l-atvori, e'tiqod va an'alarini aks ettirgan muvaqqat onomastik birliklar va ularning ijodkor badiiy niyatini yoritishdagi ahamiyati haqidagi xulosalardan FA-F-1-005 raqamli "Qoraqalpog' folklorshunosligi va adabiyotshunoslik tarixini tadqiq qilish" nomli fundamental loyihada (2017-2020) foydalanilgan. (Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpog' gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutining 2025-yil 9-iyuldagi 394/2-son ma'lumotnomasi). Natijada loyihaning folklor asarlaridagi kishi nomlari, joy nomlarining badiiy-estetik xususiyatlari haqidagi qismlari yangi tahlillar va tushunchalar bilan boyitilgan;

onomastik birliklarning xalq tarixi, madaniyati va tilining ko'p asrlik tajribasi va an'alarini o'zida aks ettirishi, badiiy matnda esa ekspressivlikni ta'minlashi bilan

bog'liq ilmiy xulosalar va tavsiyalardan "2023 KA 171 Mobility Higher Education students (Erasmus+)" nomli grantda (2023–2024) foydalanilgan. (Qo'qon davlat universitetining 2025-yil 30-avgustdagi 70-son ma'lumotnomasi). Natijada nomlar va ularning vazifalari bo'yicha ma'lumotlar takomillashtirilgan;

ona tilimizning qimmatli boyligi bo'lgan kishi nomlari, joy nomlari, ularning jamiyatdagi va badiiy matndagi o'zni haqidagi ilmiy xulosalar va materiallardan "O'zbekiston" teleradiokanali tomonidan efirga uzatilgan "Xulosa o'zingizdan" ko'rsatuvini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston telekanali"ning 2025-yil 8-iyuldagi 04-16-1499-son ma'lumotnomasi). Natijada teleko'rsatuvning faktik materiallar bilan boyitilishiga va mazmunli bo'lishiga erishilgan;

o'zbek xalqining uzoq yillik milliy qadriyatlarini o'zida aks ettirgan nomlarning badiiy matndagi turli vazifalari, badiiy matndagi nomlarni tahlil qilish bo'yicha ilmiy qarashlar va xulosalardan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston" teleradiokanalining "Bedorlik", "Ijod zavqi", "Ta'lim va taraqqiyot", "Millat va ma'naviyat" eshittirishlari ssenariysini yozishda foydalanilgan va muallif bilan suhbatlar uyushtirilgan. ("O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston" teleradiokanalining 2025-yil 10-iyuldagi 26-36-1019-son ma'lumotnomasi). Natijada mazkur eshittirishlar uchun tayyorlangan materiallarning ilmiy dalillar bilan ta'minlanishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 11 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 32 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta monografiya nashr etilgan. Shundan O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 15 ta maqola (9 tasi respublika, 6 tasi xorijiy jurnallarda) e'lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat. Tadqiqotning umumiy hajmi 235 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi oydinlashtirilgan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti belgilangan, respublika fan, texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari yoritilgan, olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati asoslangan, natijalarning joriylanishi, e'lon qilinganligi, ishning tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Muvaqqat onomastik birliklar va ularning okkazonalizmlar tizimidagi o'rni”** deb nomlangan. Unda tilshunoslikda okkazonalizmlarning o'rganilishi, okkazonallikning nomlarda voqelanishi, muvaqqat onomastik birliklar va ularning o'ziga xos xususiyatlari, shuningdek, muvaqqat va real onomastik birliklar munosabati tahlil qilingan.

Bobning birinchi bo'limi *“Tilshunoslikda okkazonalizmlarning o'rganilishi”* deb nomlangan. Ma'lumki, okkazonalizmlar badiiy matn ta'sirchanligini ta'minlovchi muhim vositalardan hisoblanadi. Badiiy matn tadqiqi bo'yicha olib borilgan ishlarda odatda poetik aktuallashtirgan ma'nodosh, shakldosh, zid ma'noli, ko'p ma'noli, tarixiy va arxaik so'zlar, shevaga xos so'zlar, chet va dag'al so'zlarga alohida diqqat qaratiladi. Mazkur vositalar qatorida yana shunday birliklar ham borki, ular shoir yoki yozuvchining individual so'z yasashi natijasida yuzaga keladigan so'z va iboralardir. O'tgan asrning 50-yillaridan *okkazonalizm* atamasi ostida o'rganilgan bunday birliklar umumxalq tili va adabiy til lug'atida mavjud bo'lmagan, nutq jarayonida muayyan shaxs tomonidan ayni shu vaziyat, mazmun ehtiyojidan kelib chiqib hosil qilingan yasalmalarga nisbatan qo'llangan¹⁰. Okkazonalizmlarning asosiy xususiyati – ular muayyan kontekst talabi bilan hosil qilinadi va ko'pincha vaqtinchalik qo'llanish xususiyatiga ega bo'ladi¹¹. V.Z.Panfilov okkazonal so'zlar kishini nafaqat aqliy bilimga, balki hissiy bilimga, ya'ni voqelikni estetik jihatdan qabul qilishga undashini alohida ta'kidlaydi¹². Mazkur mezon aynan badiiy matnlar uchun taalluqli bo'lib, okkazonal birliklar muallif niyatiga ko'ra voqelikning emotsional-ekspressivligi bilan bevosita aloqalantiriladi.

Okkazonalizmlar bo'yicha samarali tadqiqotlar olib borgan A.G.Likov ularning asosiy xususiyatlari sifatida quyidagilarni ko'rsatadi: 1. Nutqqa oidlik. 2. Bir marta qo'llanishga moslanganlik. 3. Me'yorsizlik. 4. So'z yasalishi asosida vujudga kelishi. 5. Anormallik. 6. Ekspressivlik. 7. Nominativlik. 8. Sinxron-diaxron qorishqlik. 9. Individuallik¹³.

Olim nutqqa xoslikni okkazonal so'zlarning muhim belgilaridan biri deb hisoblaydi va bu haqda shunday yozadi: “Boshqa belgilarning hammasi ana shu umumiy belgining aniq aks etishi uchungina xizmat qiladi”¹⁴. A.G.Likov nazarda tutgan nutqqa oidlik deyilganda, badiiy nutq nazarda tutiladi. Zero badiiy nutqda og'zaki nutqning ba'zi ko'rinishlari u yoki bu darajada aks etishi mumkin. Ikkinchi o'rinda keltirilgan “bir

¹⁰ Винокур Г.О. Маяковский – новатор языка. – М., 1943.

¹¹ Bu haqda qarang: Розенталь Д. Э. и Теленкова М. А. Словарь-справочник лингвистических терминов: Пособие для учителей. Изд. 2-е, испр. и доп. – М., “Просвещение”, 1976. – С. 543.

¹² Панфилов В.З. Философские проблемы языкознания. – М.: Наука, 1977. – С. 86.

¹³ Лыков А.Г. Современная русская лексикология: русское окказиональное слово. – М.: Наука. 1976. – С. 6.

¹⁴ Лыков А.Г. Ko'rsatilgan manba. – С. 7.

marta qo‘llanishga moslanganlik” deyilganda, muvaqqatlik nazarda tutiladi. Keyingi raqamda sanalgan “me’yorsizlik” belgisida okkazonal birliklarning standart adabiy me’yordan chekinishi inobatga olingan. Qolgan xususiyatlar aynan okkazonalizmlarning umumiy belgilarini o‘zida aks ettiradi.

O‘zbek tilshunosligida okkazonal birliklar va ular bilan bog‘liq lisoniy hodisalar muayyan darajada o‘rganilgan. Bu borada quyidagi yo‘nalishlarda olib borilgan tadqiqotlarda to‘xtaligan:

1. Muayyan ijodkorning so‘z qo‘llash mahoratiga bag‘ishlangan tadqiqotlar¹⁵.
2. Adabiy til me’yorlari bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar¹⁶.
3. Okkazonal ma‘no va okkazonal so‘z yasalishi haqidagi maqolalar va tadqiqotlar¹⁷.

Ijodkorning individual uslubiga xos so‘zlar, ularning xususiyatlari va nutq jarayonidagi o‘rni xususida fikr yuritilgan muhim manba X.Abdurahmonov va N.Mahmudovlarning “So‘z estetikasi” kitobidir. Mualliflar ushbu asarda qayd qilganidek, “Badiiy asar tilida uchraydigan yangi so‘zlar faqat matndagina yashaydi, ma’noga ega bo‘ladi. Ular matndan ajratib olinganda, o‘z ma’nosini deyarli yo‘qotadi, shuning uchun ular adabiy tilga deyarli o‘tmaydi”¹⁸.

Okkazonalizmlar bo‘yicha tadqiqot olib borgan O.To‘xtasinova o‘zining dastlabki ishlarida okkazonal so‘zlarga nisbatan “muvaqqat so‘zlar” atamasini qo‘llaydi¹⁹. Uning nomzodlik dissertasiyasida okkazonalizmlarning yasalishi, leksikografik talqini, okkazonalizmlarning badiiy-estetik vazifasi kabi masalalar yoritilgan²⁰.

Tilshunos B.Umurqulov ham o‘z tadqiqotlarida okkazonalizmlarga e’tibor qaratib, ularning poetik nutqdagi ahamiyati beqiyos ekanligini alohida ta’kidlaydi: “Okkazonal so‘zlar voqea-hodisani original ifodalash imkonini beradi. Shu jihatdan ham okkazonal so‘zlar poetik nutqning xususiyatlarini yuzaga chiqaruvchi muhim leksik birliklar sirasiga kiradi”²¹.

Okkazonal birliklarni muallif idiostilini shakllantiruvchi til vositasi sifatida o‘rgangan M.Abdupattoyev mazkur birliklarning poetik xususiyatlarini keng yoritgan²².

Birinchi bobning ikkinchi bo‘limi “*Onomastik birliklar va badiiy matn. Okkazonallikning nomlarda voqelanishi*” deb atalgan.

Tilshunoslikda onomastika va uning nazariy masalalari keng va chuqur o‘rganilgan sohalardan hisoblanadi. Keyingi yillarda yuzaga kelgan onomapoetika (badiiy onomastika) bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida nomlarning badiiy matndagi

¹⁵ Самадов Қ. Ойбек – сўз санъаткори. – Тошкент, 1965; О‘sha muallif. Ойбекнинг тил маҳорати. – Тошкент, 1981; Абдурахмонов Х., Махмудов Н. Сўз эстетикаси. – Тошкент: Фан, 1981; Ёриев Б. Шайхзода поэзиясида окказионализмлар // Ўзбек тили стилистикасидан кузатишлар. – Самарқанд. 1981. – Б. 77– 80; Чориев Б. Ғ.Ғулом шеърятти тили. – Тошкент: Фан, 1990.

¹⁶ Абдуллаева Л. Стилистическая дифференциация лексики художественной литературы: Дисс. ... д-ра филол. наук. – Самарқанд, 1980; Каримов С. Ўзбек тилининг бадийи услуби: Филол. фан. д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент, 1993.

¹⁷ Миргожиев М. Окказионал маъно // Ўзбек тилшунослиги масалалари. ТошДУ Илмий ишлар тўп. 443. – Тошкент: Фан, 1973; Мўминов С. Окказионал нуткий номинацияда мотивациянинг роли: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1990. – Б. 147. Махмудова С. Ўзбек тилида окказионал сўз ясалиши: Монография. – Тошкент: Fan ziyosi. 2021.

¹⁸ Абдурахмонов Х., Махмудов Н. Сўз эстетикаси. – Тошкент: Фан, 1981. – Б. 29.

¹⁹ Тўхтасинова О. Муваққат сўзларнинг ўзига хос хусусиятлари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1994. – №1-2. – Б. 51–55.

²⁰ Тўхтасинова О. Ўзбек тилида лексик окказионализмлар ва уларнинг бадийи-эстетик хусусиятлари: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2007.

²¹ Умурқулов. Б. Поэтик нутқ лексикаси. – Тошкент: Фан, 1990. – Б. 50; Shu muallif. Шеърятда окказионал сўзлар // Ўзбек тилининг лексик-грамматик хусусиятлари. – Тошкент, 1988.

²² Абдулаттоев М. Ўзбек тилининг поэтик синтаксиси: Филол. фан. д-ри ...дисс. – Фарғона, 2021. – Б. 143.

yangidan yangi vazifalari kuzatilmogda²³. Bu ayniqsa, ijodkorlar tomonidan alohida maqsadlar bilan yaratilgan onomastik birliklarda yaqqol namoyon bo'lmogda.

Akademik V.Vinogradovning mazkur fikrlari nomlarning badiiy matndagi o'rni o'ta muhim ekanligini dalillaydi: "badiiy matnda qahramon ismi, familiyasi va laqabini tanlash masalasiga, turli janr va uslublarda tuzilish jihatidan o'ziga xos namoyon bo'lish tarziga, tavsifiy vazifasi va shu kabilarga bir necha misol berish bilan kifoyalanib qolmaslik kerak. Bu badiiy onomastikaning juda katta va murakkab mavzusi hisoblanadi"²⁴.

Onomastik birliklarning badiiy adabiyotdagi qo'llanishi milliy qadriyatlar bilan bog'liq holatlarni ham ifodalashga xizmat qiladi. Bu haqda A.Nurmonov shunday yozadi: "Badiiy adabiyotda qahramonlarning xarakteriga mos ism tanlashga harakat qilinadi. Masalan, "Tohir va Zuhro" dostonida *Tohir* – pokiza, nuqsonsiz; *Zuhro* – nurli, ko'rkam; niyati qora bo'lgan qahramonga esa *Qorabotir* deb ot qo'yiladi. Ko'rinadiki, ism insonning o'z zurriyotiga bo'lgan orzu-niyatining debochasi, badiiy asarlarda esa qahramon xarakteriga ishoradir. Demak, ismda gap ko'p. Ismning tilsimini ochish, ma'nolarini belgilab berish katta amaliy ahamiyatga ega"²⁵. Shuningdek, "badiiy asar tilidagi toponimlarni tadqiq etish, bir tomondan, tilshunoslikning toponimika sohasi uchun ahamiyatli bo'lsa, ikkinchi tomondan, tilshunoslikdagi eng dolzarb masalalardan biri – badiiy asar tili va yozuvchi uslubi muammosiga ma'lum bir aniqliklar kiritishi shubhasizdir"²⁶.

Badiiy matnda qo'llangan nomlar tasvirlanayotgan voqea mazmuniga bog'liq holda uni badiiy aks ettirish uchun ham xizmat qiladi. Bu haqda antroponomlar uslubiyati bo'yicha kuzatuvlar olib borgan tilshunos E.Qilichev o'z tadqiqotlarida batafsil ma'lumot bergan²⁷.

Badiiy matnda qahramon ismlarining tanlanishi bilan birga uning taqdim qilinishi ham muhim hisoblanadi. Mualliflar qahramonni tanishtirar ekan, o'ziga xos usullarni qo'llaydilar. Nomdan kutilgan badiiy maqsad aksar hollarda muallif-roviiy nutqi orqali

²³ Михайлов В.Н. Собственные имена персонажей русской художественной литературы XVIII и первой половины XIX в., их функции и словообразование: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 1956; Магазаник Э.Б. Поэтика имен собственных в русской классической литературе: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Самарканд, 1967; Shu muallif. Ономапоэтика или "говорящие имена" в литературе. – Ташкент: Фан, 1978; Зинин С.И. Введение в поэтическую ономастику // [www.planeta-imen.narod.ru / litonomastika/main.html](http://www.planeta-imen.narod.ru/litonomastika/main.html); Фоянкова О.И. Имя собственное в художественном тексте: учеб. пособие. – Л., 1990; Калинин В.М. Поэтика онима. – Донецк, 1999; Shu muallif. Теоретические основы поэтической ономастики: Автореф. дисс. ... д-ра филол. наук. – Киев, 2000; Супрун В.И. Ономастическое поле русского языка и его художественно-эстетический потенциал. – Волгоград, 2000; Жаппар К.З. Эстетические функции имен собственных в поэзии О.Сулейменова: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Алмата, 2000; Гаррапова Г.Х. Поэтическая ономастика прозы Мухаммета Магдеева: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Казань: Казанск. гос. ун-т, 2000; Виноградова Н. В. Имя в художественном тексте: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Тверь, 2002; Хамитова Л.М. Поэтический ономастикон в татарских детских стихотворениях: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Елабуга, 2007; Курбонмамадов С.Х. Семантико-стилистические особенности поэтонимии "Шахнаме" Абулкаси́ма Фирдавси: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Душанбе, 2014; Худойберганова Д., Анданиёзова Д. Ўзбек тили поэтонимларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Турон замин зиё, 2016; Худойберганова Д. Лингвостилистиканинг тадқиқ объекти хусусида / Ўзбек тилшунослигининг долзарб муаммолари. – Тошкент, 2018. – Б. 60–65. Муқимова З. Ўткир Ҳошимов асарларидаги поэтонимларининг изоҳли луғати. – Тошкент: "Qaqrus media", 2020; Юлдашев Ж. Усмон Носир шеърининг лингвопоэтикаси: Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2023.

²⁴ Виноградов В.В. Стилистика, теория поэтической речи, поэтика. – М.: Наука, 1963. – С. 38.

²⁵ Bu haqda qarang: Nurmonov A. Tanlangan asarlar. III jild. – Тошкент: Академнашр, 2012. – Б. 286.

²⁶ Курбонов Т. Бадий асарлардаги топонимларнинг лингвистик тахлили ва изоҳи масалалари. – Самарканд, 2006. – Б. 11.

²⁷ Bu haqda qarang: Қиличев Э. Айний асарларидаги антропонимларнинг стилистик хусусиятлари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1978. – № 4. – Б. 25.

taqdim qilinsa, ayrim hollarda qahramonlar nutqi orqali oshkor qilinadi. Umuman, badiiy matnda onomastik birliklarning bir-biri bilan chambarchas bog‘liq ikki guruhi mavjud bo‘lib, ularning birinchisi real nomlar bo‘lsa, ikkinchisi ijodkorlar tomonidan yaratilgan nomlar, ya‘ni muvaqqat onomastik birliklardir. Birinchi guruhga kiradigan kishi nomlari har bir xalqning yangi tug‘ilgan chaqaloqni nomlash an‘analaridan kelib chiqib, ushbu xalqning hayot tarziga mansub muayyan ma‘noni ifodalashga xizmat qiladi. Ikkinchi guruhga mansub nomlar esa, asosan, badiiy asarlarda uchraydi hamda V.S.Vinogradov qayd etganidek, “Ijodkorlar yaratgan nomlar ham aslida mavjud onomastik qolip va onomastik tizimdagi nomlardan farqlanmaydigan, atoqli va turdosh otlar xususiyatlarini qamrab oladigan kitobiy otlardir”²⁸.

Birinchi bobning uchinchi bo‘limi “*Muvaqqat onomastik birliklarning o‘ziga xos xususiyatlari*”ni yoritishga yo‘naltirilgan.

Ma‘lumki, ijodkor o‘zi yaratayotgan badiiy olamini to‘laqonli ifodalash uchun nafaqat mavjud til birliklaridan foydalanishga, balki estetik qimmatga ega bo‘lgan boshqa birliklarni yaratishga ham ehtiyoj sezadi. Ana shunday vaziyatda muvaqqat so‘zlar yuzaga keladi. L.K.Nikitinaning quyidagi fikrlarida bunday birliklarning yuzaga kelish sabablari aniq ifodasini topgan: “Birxillikdan voz kechish istagi ijodkorlarni shunday so‘zlarni topishga undaydiki, ular lug‘aviy birliklar bilan o‘zaro munosabatga kirishib, muallifning fikri, hissiyotini aks ettiradigan semantik o‘zgachalikni vujudga keltiradi”²⁹. Onomastik tizimdagi nomlar har doim ham qahramonlarni, joylarni nomlashda matn talabi bilan yuzaga keladigan holatlarga mos kelmaydi. Masalan, muallifning subyektiv munosabati ifodalanadigan vaziyatlarda kinoyaviy ma‘noga ega nom tanlanishi kerak bo‘lganda, onomastik tizimda bunday mazmundagi nomlar uchramasligi mumkin. Shu kabi vaziyatlarda ijodkor o‘zi nom yaratadi. Unda qahramonning yoki tasvirlanayotgan obyektning muayyan xususiyatlarini ifodalovchi belgilar, holatlar inobatga olinadi.

Badiiy onomastika doirasida olib borilgan ishlarda bu kabi onomastik birliklarga nisbatan to‘qima nomlar³⁰, o‘ylab topilgan nomlar³¹, okkazonal atoqli otlar³², muallif poetonimi³³, okkazonal onomastik birliklar³⁴ kabi terminlar qo‘llangan.

Tadqiqotimizda muallifning alohida badiiy maqsadlarini ifodalash uchun yaratilgan nomlar *muvaqqat onomastik birliklar* termini ostida tekshirildi.

Biz nazarda tutayotgan bu termin *okkazonal onomastik birliklar* terminiga o‘zbekcha muqobil bo‘la oladi. Avvalo, muvaqqat nomlarning chegarasini belgilash zarur. *Muvaqqat* so‘zi “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da quyidagicha berilgan: “muayyan vaqtga belgilangan; vaqtincha, qisqa vaqtli. Vaqtinchalik, doimiy bo‘lmagan”³⁵. Mazkur

²⁸ Виноградов В.С. Лексические вопросы перевода художественной прозы. – М., 1978. – С. 134.

²⁹ Никитина Л.К. Окказиональные слова и способы их образования // Актуальные проблемы русского словообразования. – Самарканд: СамГУ, 1972. – С. 190.

³⁰ Нуритдинова Р. Ўзбек ономастикаси терминларининг лисоний тахлили: Филол. фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 2005. – Б. 62–63.

³¹ Зинин С.И. Введение в поэтическую ономастику // www.planeta-imen.narod.ru/litonomastika/main.html.

³² Пулина Е.А. Окказиональные имена собственные в романе Дж. Джойса “Улисс” и их межъязыковая передача // Пермский государственный фармацевтический вестник. 2007. № 3. – С. 195–198.

³³ Зинин С.И. Имена персонажей в художественной литературе и фольклоре / С.И. Зинин, А.Г. Степанов // Антропонимика. – М., 1970. – С. 330–355.

³⁴ Касьяненко Н.Е. Отонимные окказионализмы и окказиональные онимы в русском языке: Автореф дисс. ... канд. филол. наук. – Днепропетровск, 1991; Яковенко Н.С. О некоторых особенностях окказиональных антропонимов в английских романах В.В.Набокова // МНКО. 2011. № 2 – С. 48–50;

³⁵ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6 jildli. 3-jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. – B. 298.

ishda *muvaqqat* soʻzining “doimiy boʻlmagan”, “anʼanaga aylanmagan”, “ommalashmagan” maʼnolaridan foydalanildi. Bunda faqat bir asar yoki matn doirasida amal qiluvchi shaxs yoki joyning qaysidir xususiyatini belgilaydigan, ijodkorlar tomonidan maxsus yaratilgan nomlar onomastik tizimdagi barqarorlashgan, turgʻunlashgan, odatiy nomlarga nisbatan belgilanadi.

Muvaqqat onomastik birliklarning oʻziga xos xususiyatlari sifatida quyidagilarni aytish mumkin:

- onomastik tizimda uchramaslik;
- matnga bogʻliqlik (kontekstuallik);
- individuallik;
- situativlik (vaziyatga bogʻliqlik);
- koʻnikilmaganlik;
- qoʻllanish jihatdan cheklanganlik.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, muvaqqat onomastik birliklarga quyidagicha taʼrif berish mumkin: Muvaqqat onomastik birliklar standart onomastik tizimda uchramaydigan, odatda bir marta qoʻllanishga moʻljallangan, shuningdek, badiiy niyatni oʻziga xos tarzda yoritishga, tasvirlanayotgan biror obrazning eng muhim qirralarini namoyon etishga, muallifning subyektiv munosabatni ifodalashga xizmat qiladigan hamda matn mazmuni bilan bogʻliqlik kasb etgan poetik vosita hisoblanadi.

Toʻplangan faktik materiallar asosida aytish mumkinki, muvaqqat nomlarning deyarli barchasi ijodkorlarning oʻta shaxsiy, oʻziga xos tafakkurini, yondashuvini namoyon qiladi. Masalan, *Tuproqbibi* (A.Qodiriy); *Mafkuraxonim*, *Aralashqoʻrgʻon*, *Dongʻiston* (E.Aʼzam); *Mustayiston*, *Birlashgan Gullar Tashkiloti*, *Ranjkom* (A.Oripov); *Donishqishloq*, *Qobiliston* (E.Vohidov); *Gʻuliston*, *Boqizavr* (A.Aʼzam); *Robotqul* (O.Matjon); *Kungaboqarov*, *Xasisxoʻja*, *Qogʻoz Bozov*, *Xushim Keldiyev*, *Oʻsalkent* (H.Siddiq); *Qoyilxoʻja*, *Shudringboyvachcha*, *Gʻiybatillo*, *Vaʼdayev* (Alp Jamol); *Pinhonov* (Sh.Xolmirzayev), *Lugʻatxoʻjayev*, *Soʻzpardoziy*, *Qahratoniya* (A.Obidjon); *Alomatxon* (Sh.Boshbekov), *Yoʻqqulobod*, *Janjalqishloq*, *Falonna Pismadonxoʻjayev* (T.Malik); *Manguqut*, *Manguhayot*, *Tongyorugʻ* (U.Azim) va boshqalar.

Muvaqqat onomastik birliklarning muhim lingvopoetik vazifalari quyidagilarda koʻrinadi:

1. Badiiy matnda muvaqqat onomastik birliklar oʻquvchi diqqatini oʻziga qaratishi, tegishli badiiy maʼnolar bilan toʻyinib, lingvopoetik qimmat kasb etishi barobarida badiiy matnning estetik idrok etilishini yanada qulaylashtiradi.

2. Adabiy asarning gʻoyaviy mazmuni va shu bilan bogʻliq muallif badiiy maqsadini yoritishga xizmat qiladi.

3. Ekspressivlik va emotsionallikni yuzaga keltirish uchun xizmat qiladi.

4. Komik effekt, ironik mazmuni ifodalashga yordam beradi.

5. Matnlararo aloqadorlikni taʼminlaydi.

6. Obrazlilikni yuzaga keltiradi.

7. Baholash vazifasini bajaradi va muallifning subyektiv munosabatini ifodalab keladi.

Bobning oxirgi boʻlimida “*Muvaqqat va real onomastik birliklarning munosabati*” yoritilgan. Badiiy matnning onomastik koʻlamini, asosan, real (barqaror) nomlar tashkil etadi. Real nomlar bilan birga muvaqqat nomlarning uchrashi oʻquvchiga badiiy zavq beradi. Tatar tilshunosi G.Zinnatullina fikriga koʻra, “badiiy asarda real nom boʻladimi

yoki muvaqqat nom, barchasi muayyan ahamiyatga ega. Poetik maqsad nazarda tutilmagan holda ham badiiy asardagi antroponimlar muayyan bir xalqning ism qo'yish madaniyatidan xabar beradi va badiiy asarning onomastik ko'lamini belgilaydi"³⁶. Olima tatar-boshqird yozuvchisi A.Yeniki asarlaridagi antroponimlarni uchga bo'lib o'rganar ekan, unda real va muvaqqat nomlarning xususiyatlarini inobatga oladi: 1. Tavsiflovchi ismlar. Bunga badiiy asarda maxsus qo'llangan, qahramon xarakteriga mos badiiy antroponimlarni kiritgan. 2. Tagma'noli tavsiflovchi ismlar. Bunga g'oyaviy (ideologik) vazifa bajaruvchi ismlar kiradi. Bu tur ismlar yashirin ekspressiya ifodalab keladi. 3. Neytral xarakterdagi poetik antroponimlar. Bunga faqat nominativ vazifa bajaruvchi antroponimlar kiradi. Tasnifdan ko'rinadiki, badiiy asardagi har qanday antroponimda ekspressivlik oshkora yoki yashirin tarzda ifodalanadi yoki nom butunlay neytral baho anglatgan holda qo'llanadi. Bu xususiyat real nomlarga xosdir. Badiiy matndan tashqarida real antroponimlar odatda neytral xarakterli bo'ladi. Shuningdek, barcha real nomni ham poetik ahamiyatga ega birlik, ya'ni poetonim deb bo'lmaydi. Biroq real nomlarning apellyativ ma'nosiga ishora qilish orqali ijodkor muayyan badiiy niyatini ifodalaganda, nom poetik aktuallashadi, uning turli vazifalari namoyon bo'ladi.

Muvaqqat onomastik birliklar va real onomastik birliklar quyidagi jihatlari bilan bir-biridan farq qiladi:

1. Qo'llanishiga ko'ra. Real onomastik birliklar tilning onomastik tizimiga mansub bo'ladi. Masalan: kishi nomlari (Nargiza, Asqar), joy nomlari (Buxoro, Farg'ona), daryo yoki tog' nomlari (Sirdaryo, Zarafshon), tarixiy shaxslar nomlari (Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi). Muvaqqat onomastik birliklar esa faqat muayyan matn doirasida qo'llanadi. Masalan: *Qobiliston* (E.Vohidov), *Tijoratxon* (S.Ahmad), *G'uliston* (A.A'zam), *Mustayiston* (A.Oripov) kabi. 2. Vazifasiga ko'ra. Real nomlar jamiyatda insonlarni, joylarni bir-biridan farqlashga xizmat qiladi. Muvaqqat onomastik birliklar esa nominativ vazifa bilan birga, estetik vazifa bajarishga xoslangan bo'ladi. 3. Til va nutqda kuzatilishiga ko'ra. Real onomastik birliklar til birligi hisoblanadi. Muvaqqat onomastik birliklar esa nutq jarayonida yaratiladi. 4. Yasalishiga ko'ra. Real nomlar tilda tayyor bo'ladi. Muvaqqat onomastik birliklar odatda milliy onomastika an'analari asosida, ba'zan undan chekingan holda hosil qilinadi. 5. Mazmun-mohiyatiga ko'ra. Real nomlar odatda ijobiy mazmunga ega bo'ladi. Muvaqqat onomastik birliklarda ham ijobiy, ham salbiy mazmun ifodalanadi. 6. Yangilik bo'yog'ining ifodalanishiga ko'ra. Real nomlarda yangilik bo'yog'i bo'lmaydi. Ular odatiy nom sifatida ommalashgan bo'ladi. Muvaqqat onomastik birliklar yangilik bo'yog'ini yo'qotmaydi hamda kutilmaganligi jihatdan diqqatni tortadi. 7. Davriylik belgisiga ko'ra. Muvaqqat onomastik birliklar vaqtinchalik xususiyatiga ega bo'lgan, ijodkorning individual so'z yasashi asosida yuzaga keladigan, turg'unlashmagan nomlardir. Real nomlar esa tilda va jamiyatda keng ishlatiladigan, tez-tez murojaat qilinadigan barqaror nomlardir.

Tadqiqotning ikkinchi bobi "**Muvaqqat onomastik birliklarning yuzaga kelishi, tasnifi va semantik xususiyatlari**" deb nomlanib, u uch bo'limdan tarkib topgan. Bobning birinchi bo'limi "*Onomastik birliklarga turli yondashuvlar*" deb ataladi. Olimlar onomastik birliklarni faqat lingvistik nuqtayi nazardan emas, balki fan tarmoqlarining maxsus usullaridan unumli foydalangan holda tadqiq etish muhimligini

³⁶ Зиннатуллина Г.Х. Поэтическая ономастика прозы Амирхана Еники: Дисс. ... канд. филол. наук. – Казань, 2005. – С. 58.

aytishadi hamda bu borada turli fanlarning tilshunoslik bilan hamkorlik qilishidan faqat bir tomon emas, hamkorlikdagi barcha fanlar u yoki bu tarzda muayyan yutuqqa erishishlari mumkinligini ta’kidlashadi³⁷.

Keyingi yillarda onomastik birliklar quyidagi yondashuvlar asosida o’rganilayotgani kuzatiladi. Ular: nazariya bilan shug’ullanuvchi sof lingvistik (masalan, antroponimlar tipologiyasi, tasnifi kabi) va uning amaliy jihatini o’rganuvchi (masalan, onomastik birliklar lug’ati kabi) yo’nalish; sotsiolingvistika bilan shug’ullanuvchi yo’nalish; psixolingvistik; etnolingvistik (yoki lingvomadaniy) va lingvopoetik³⁸.

Umuman, nomlarda muayyan bir shaxs yoki etnosning tarixiy va ijtimoiy ahvoli haqidagi ma’lumotlar, ma’lum bir xalqning milliy-ma’naviy dunyosi, olam va hayot haqidagi tasavvurlaridan tarkib topgan axborotlar kodlangan bo’ladi. Ayniqsa, muayyan til onomastik tizimi asosida hosil qilingan muvaqqat nomlarning badiiy asarda qo’llanishi o’ziga xos qonuniyatlarni namoyon qiladi.

Bobning ikkinchi bo’limi “*Muvaqqat onomastik birliklarning yuzaga kelish xususiyati*”ga bag’ishlangan. Tilning so’z yasash tizimi muayyan qonuniyatlarga, morfemalarning o’zaro bog’lanish valentligiga asoslanadi. Shu jihatdan, har qanday yasama so’z mavjud so’z yasash qoidalari asosida vujudga kelishi kerak. Biroq badiiy matnlarda, xususan, hajviy yoki publitsistik asarlarda, mediamatnlarda shunday so’zlar ham borki, ular mavjud so’z yasash qonun-qoidalariga mos kelmaydi. Mazkur holat muvaqqat so’zlarga xos yasash sifatida tilshunoslikda alohida tahlilni taqozo etadi. Bunday yasalmalar “narsa-hodisalarni tasniflash, tavsiflash – tushuncha yaratish xususiyatiga ega bo’lib, ayniqsa, ularda muayyan tushunchani atash, nomlash jarayoni juda aniq ko’zga tashlanadi”³⁹.

Aytish joizki, muvaqqat onomastik birliklar, avvalo, ijodiy (badiiy) yasalmalar sifatida ahamiyatli hisoblanib, ular matn mazmuni va qurilishi bilan uzviy bog’liqlikda yuzaga keladi. Shuningdek, bunday nomlar odatda onomastik tizimga kiritish uchun emas, balki badiiy vosita sifatida xizmat qiladi.

Muvaqqat onomastik birliklarning yuzaga kelishini milliy til tabiatidan kelib chiqib ikki guruhga bo’lib o’rganish mumkin: 1. **O’zbek tili milliy onomastika an’analari asosida hosil qilingan muvaqqat onomastik birliklar.** Bunda o’zbek tili onomastik tizimiga xos antropoindikator yoki topoindikatorlar orqali muvaqqat nom hosil qilinadi. Misollar: *Tuproqbibi, G’iybatillo, G’iybatniso, Xarajatxon, Ma’quljon, Voyqul, Xudbiddin, G’amxo’rov, Va’dayev, Salomobod, Janjalmahalla, Donishqishloq, Aralashqo’rg’on* kabi. Ma’lumki, tilimizda *-bibi, -niso, -oyim* kabi antropoindikatorlar qizlar ismlarida uchrasa, *-illo (-ullo), bek, -qul* kabi antropoindikatorlar o’g’il bolalar ismiga xosdir. Tabiiy, onomastik tizimga xos bo’lgan qoliplar badiiy asarlarda ham o’z aksini topgan bo’lib, qahramonlarning rasmiy maqomini ta’kidlashga qaratilgan o’rinlarda yoki nutqiy vaziyat talabi bilan badiiy matnda ham ism, otaism, familiyalarni shakllantiruvchi vositalar qo’llanilgani kuzatiladi. Masalan, Mirmuhsinning “Chotqol yo’lbarisi” asaridagi qahramon *Ishlarbek Xudourganovich Sapchaboshev* deb

³⁷ Шоабдурахмонов Ш. Антропонимик формантларнинг таркибий функционал ривожига ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. – №4. – Тошкент, 2003. – Б. 20.

³⁸ Бу ҳақда қаранг: Омакаева. Э.У. Триада “язык – культура – этнос” сквозь призму антропонимии: калмыцкие личные имена в контексте буддийской культуры // Вестник Калмыцкого института гуманитарных исследований РАН. – №2. 2008. – Б. 8.

³⁹ Бу ҳақда қаранг: Махмудова С. Ўзбек тилида окказионал сўз ясалиши: Монография. – Тошкент: “Fan ziyosi”, 2021. – Б. 123

nomlangan. Yoki badiiy matndagi muvaqqat joy nomlarini kuzatadigan bo'lsak, aksar hollarda milliy toponimik tizimga mos nomlar yasalganini ko'ramiz. Umuman, badiiy matnda aks etgan onomastik an'analar orqali milliy tilning muayyan jihatlari namoyon bo'ladi hamda nom mansub bo'lgan xalq haqida tegishli axborotlar saqlanadi.

2. O'zbek tili milliy onomastika an'alariga mos kelmaydigan muvaqqat onomastik birliklar: *Xon Man Men, Man Xon Man, Turobadze, Gugushidze, Qahratoniya, Tursoriya, Faloniya*. Bunday nomlardan badiiy matnda vaziyat talabi bilan foydalaniladi. Odatda biror millatga mansub qahramonni atashda o'sha millatga xos nomlar tanlanadi yoki o'sha millat onomastik an'alariga xos nom yasaladi. E.A'zam tomonidan yaratilgan quyidagi nomlar boshqa tillarning onomastik an'analari asosida hosil qilingan: *Gugushidze Xon Man Men, Men Xon Man*. Jumladan, *Gugushidze* (qulog'ida hushtak chaladigan qahramon nomi, forschada "gush" – quloq, "gu" – ayt, gapir degani; yozuvchi izohi), *Turobadze* nomlari gruzincha nomlar shaklida yasalgan bo'lib, qahramonlarning asarda bevosita shu muhitga aloqadorligi ta'kidlangan.

Muvaqqat onomastik birliklarning yuzaga kelishi faqat so'z yasalishi turlari va andozalari, yasovchi asos va yasalma o'rtasidagi munosabatlar buzilishi, onomastik an'analarga mos bo'lishi yoki bo'lmasligi bilan cheklanmaydi. Muvaqqat onomastik birliklar so'z morfem qurilishida yuz beradigan turli xil fonomorfologik va semantik o'zgarishlar (transformatsiya), o'zlashtirma so'zlarga xos morfem tuzilishlar bilan bog'liq qayta fahmlash, tarjima qilish orqali ham yuzaga kelishi mumkin. Shu asosda biz mavjud tasniflarga tayanib hamda muvaqqat onomastik birliklarda kuzatiladigan o'ziga xos yasalishni inobatga olib, ularning yuzaga kelishini quyidagicha guruhlashtirdik:

1. Mahsuldor so'z yasalish andozasiga muvofiq yaratilgan, biroq me'yoriy yasalishga xos grammatik va semantik shart-sharoiti buzilgan muvaqqat onomastik birliklar. Bu hodisani onomastik birlik bo'lmagan muvaqqat so'zlar misolida kuzatsak, masalan, *qorong'uzor, she'riston, multiqzor* kabi yasalmalarda yasovchi asosning ma'no mezonini – so'z va qo'shimchaning birikish maromi, valentligi buzilgan. Bu hodisa muvaqqat nomlarda ham kuzatiladi. Masalan: *...shaharga qatnovchilar Soybozorda avtobus poylab o'tirishib, "Bu Soybozor emas, Oftobzor" deb yuborishibdi*. Mushtum, "Oftobguzar". Misoldagi *Soybozor* toponimi real joy nomini atab kelgan bo'lib, matnda uning boshqa belgilari asosida *Oftobzor* muvaqqat toponimi hosil qilingan. Nomlarning denotativ ma'nosi nomlararo zidlikni ham yuzaga keltirgan. Ya'ni real nomning *soy* komponentida "salqinlik" ma'nosi aks etsa, *Oftobzor* toponimining *oftob* qismi "issiqlik" ma'nosi bilan ishtirok etgan. Demak, matndagi asosiy joy nomi matn vaziyati talabi bilan o'zgartirilgan hamda o'sha hududga xos bo'lgan qo'shimcha xususiyatlarni namoyon qilgan. Ma'lumki, o'rin-joy oti yasovchi -*zor* qo'shimchasi ekin, daraxt, meva kabilarni bildiruvchi so'zlarga qo'shilib, o'sha narsa mo'l bo'lgan joyni ifodalashi adabiy tildagi so'z yasash qonun-qoidalariga mos keladi: *bedazor, shaftolizor, daraxtzor, bodomzor* kabi. Misolda -*zor* qo'shimchasining o'simlik yoki daraxt nomi bo'lmagan so'z, ya'ni *oftob* so'ziga qo'shilib, muvaqqat joy nomi yasalgani kuzatiladi va oftob bilan kengaygan muayyan hudud (matnda avtobus kutadigan bekat) nazarda tutiladi. Shuningdek, oftobda uzoq qolib ketganlikka ham ishora bor. Matn doirasida nazarda tutilgan mezon buzilgani hamda iste'molda bunday toponim mavjud bo'lmagani sababli *Oftobzor* muvaqqat toponim hisoblandi. Yoki -*iston* qo'shimchasi odatda millat, elat nomini bildiruvchi so'zlarga qo'shilib joy nomi hosil qiladi. Muvaqqat toponimlarning yuzaga kelishida esa bu mezon farqli ekanini kuzatish

mumkin. Masalan, *Qobiliston* nomi misolida ko‘radigan bo‘lsak, muvaqqat nom insonning xarakter-xususiyatiga oid sifat so‘z turkumi (*qobil – Qobiliston*) orqali yuzaga kelgan.

2. Onomastik transformatsiya orqali hosil qilingan muvaqqat onomastik birliklar. Onomastik transformatsiya mavjud (real) nomlarning qayta shakllanishi, ularning fonetik, morfologik, semantik jihatdan o‘zgartirilishi jarayonidir. Ya’ni bunda nom shakliy-ma’noviy jihatdan o‘zgarishga uchraydi hamda matnda mavjud muayyan nomga bog‘liq holda yangi nom yasaladi. Bunday yasalmalarda ekspressivlik yuqori bo‘ladi. Masalan: *Qulahmad* → *Pulahmad*, *Ishlarbek* → *Shilarbek*, *Xudoyberganovich* → *Xudourganovich*, *Mustafqulov* → *Mustaqil domla*, *Asadillo* → *Hasadillo*.

Onomastik transformatsiya odatda antroponimlar doirasida yuzaga keladi hamda bu hodisa ismlar, otasmlar, familiyalar, laqablar va nikneymlar (ijtimoiy tarmoqlardagi nomlar)da ko‘p kuzatiladi. Tilshunos V.Bondjolova qayd etishicha, “transformatsiyaga uchragan nomlar nominativ xususiyatini saqlab qolishi bilan birga unda muallifning subyektiv munosabati, qahramonning xulq-atvori, faoliyati, sifatleri va boshqa jihatlari ham o‘z aksini topadi”⁴⁰.

Quyida berilgan matnda muvaqqat nomning onomastik transformatsiya asosida hosil qilingani kuzatiladi: *Bu yigitning to‘la nomi Ishlarbek Xudoyberganovich Sapchaboshevdur. Ba’zi oshnalari Ishlarbek emas, Shilarbek, Xudoyberganovich emas, Xudourganovichsan, deyishardi.* Mirmuhsin, “Chotqol yo‘lbarsi”. Ko‘rinadiki, bir qahramonga berilgan ikki ism ham muvaqqat nom sifatida namoyon bo‘lgan. Har narsadan foyda ko‘zlaydigan, rahbarlar oldida o‘zini o‘ta ishlaydigan odam sifatida ko‘rsatish mahoratiga ega bo‘lgan *Ishlarbek* xalqqa qarashli mahsulotlarni o‘zlashtirib, ulardan shaxsiy maqsadda foydalanadi. Shunga ishora sifatida uning nomi kasbdoshlari tomonidan *Shilarbek* tarzida ataladi. Bunda salbiy bo‘yoq ifodasiga ega bo‘lgan *shilmoq* fe’li ma’nosi orqali qahramonning xalq mulkini o‘ta mohirlik bilan o‘zlashtirishiga ishora qilinadi. *Sapchaboshev* familiyasi anglatgan ma’no esa *sapchabosh* so‘zining apellyativ ma’nosi – “pishib yetilmagan kichkina qovun” bilan aloqador. Nom orqali qahramonning o‘rtamiyona fikrlaydigan, o‘z foydasi yo‘lida hech narsadan qaytmasligi ifodalangan: Shuningdek, matnda qahramonning otasmi – *Xudoyberganovichning Xudourganovich* tarzida transformatsiyaga uchrashi ham muallifning badiiy maqsadi asosida yuzaga kelgan. Mazkur muvaqqat nom salbiy ma’noga ega bo‘lib, qahramon xarakterini yoritishda muhim poetik vosita hisoblanadi.

3. Kontaminatsiya asosida hosil qilingan muvaqqat onomastik birliklar.

Ikki (ba’zan uch) so‘z yoki iboraning ma’lum umumiylikiga ko‘ra o‘zaro birikish yo‘li bilan yangi so‘z yoki ibora hosil qilish hodisasiga kontaminatsiya (lat.contominat:o – tutashtirish, aralashtirish) deyiladi⁴¹. Bunda so‘zlarning muayyan qismlari birlashishi natijasida yangi onomastik birlik hosil qilinadi. Tilshunos A.V.Spiridonov o‘z maqolasida mazkur usul bilan hosil qilingan nomlarga quyidagilarni misol sifatida keltiradi: *Gogol+Dostoyevskiy = Gogloyevskiy; Akulin (a)+Nin (a) = Akulenina*⁴².

⁴⁰ Бонджолова В.Ц. Окказиональные трансформации антропонимов как инвективная лексика. Медиалингвистика, Болгария. 7 (3). <https://doi.org/10.21638/spbu22.2020>. – С. 359.

⁴¹ Фуломов А. Диалектал луғат ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. – №4. – Тошкент, 1968. – Б. 20.

⁴² Bu haqda qarang: Спиридонов А.В. Неузальный способ образования окказиональной лексики в произведениях В.Аксенова // Вестник СамГУ 2014, – №5 (116). – С. 80-85.

Quyidagi misolda *Boqizavr* muvaqqat nomi hosil bo'lishida uning ikkinchi qismidagi turdosh ot qisqarishi kuzatilgan: *Biz bilan bir barzangi yigit ishlar edi, yurish-turishi vahima, hamkasbimiz uylanganda, to'yda shu gavdasi bilan o'yinga tushib, hammani qo'rqitdi, shundan keyin uning Boqi oti Boqizavr bo'lib ketdi.* A.A'zam, "G'ulistonga safar".

Asarda qahramonning tashqi ko'rinishi bahaybat, ya'ni bo'yi uzun va beso'naqay bo'lgani uchun yangi hosil qilingan ismda ham shunga ishorani sezish mumkin. Ta'kidlash kerakki, bu usul bilan nom hosil qilinishi o'zbek badiiy matnlarida faol emas.

4. So'z birikmasini qisqartirib, uni lug'aviy birlikka aylantirib olish yo'li bilan yasalgan muvaqqat onomastik birliklar: *Eltug'i* (*elning tug'i* birikmasi asosida hosil qilingan), *Janjalqishloq* (*janjalkashlar qishlog'i* birikmasi asosida yasalgan), *Aralashqo'rg'on* (*aralashganlar qo'rg'oni* birikmasi asosida yasalgan).

Quyidagi matnda yozuvchi har joydan kelgan, har xil odamlar yashab, aralashib ketgan mahallani "Aralashqo'rg'on" deb atagan. Nom orqali hududga xos xususiyat hamda kinoyaviy maqsad yoritilgan: *Kimdir bu joy ahlini qurama, aralash degandek gap qilgan ekan, mahallaning nomi o'z-o'zidan "Aralashqo'rg'on" bo'lib ketdi. To'g'ri-da, daydi shopir-u oddiy nafaqachidan tortib, sobiq vazir-u vahimali prokurorlargacha shu yerda!* E.A'zam, "Aralashqo'rg'on".

Ta'kidlash kerakki, muvaqqat nomlar badiiy matnda shunchaki yangi so'z ijod qilish istagi bilan emas, balki muallifning g'oyaviy pozitsiyasi, estetik munosabati va ijtimoiy-tanqidiy bahosi sifatida yuzaga chiqadi.

5. Badiiy matnlar tarjimasi jarayonida yuzaga kelgan muvaqqat onomastik birliklar. Bunday nomlar bolalar adabiyotida ko'p uchraydi. Misollar: *Bilmasvoy* (*Neznayka*), *Bilag'on* (*Znayka*), *Voyjonim* (*Aybolit*), *Murvatvoy* (*Винтук*), *Magarqul* (*Небоська*).

Badiiy matndagi nomlar tarjimasi masalasi D.Igamuratova tadqiqotida atroflicha yoritib berilgan bo'lib, olimlar rus bolalar adabiyotidagi qator nomlarning o'zbekcha matnlarda berilishi bo'yicha o'rinli mulohaza yuritgan: "Badiiy tarjima jarayonida "nomlar tarjimasi bir qarashda qiyinchilik tug'dirmaydigandek tuyulishi mumkin. Hattoki, bu tarjima shartli harakat deb nomlanadi: odatda atoqli otlar transkripsiya (transliteratsiya) qilinadi, boshqacha qilib aytganda, tarjima qiluvchi tilning alfavit tizimi yordamida ularning talaffuz qilinishi yoziladi"⁴³. Bu o'rinda aytish kerakki, badiiy asarlar tarjimasida ijodkorning individual yasalmasi bo'lgan "so'zlovchi" nomlarni tarjima qilish tarjimon zimmasiga muayyan qiyinchiliklarni yuklaydi. Shu ma'noda tarjima jarayonida muvaqqat onomastik birliklarni boshqa tilga o'girish har doim ham o'zini oqlamaydi. Ayniqsa, boshqa bir tildagi muvaqqat onomastik birlik ikkinchi bir tilga tarjima qilinganda bu muammo aniq ko'rinadi.

Ba'zan tarjimolarning nomlarni til tabiati hamda talaffuz me'yorlariga moslashi natijasida muvaqqat nom hosil qilinishi kuzatiladi. J.Rodarining "Jelsomino yolg'onchilar mamlakatida" nomli qissasi tarjimoni A.A'zam qissa qahramonlari ismlarini o'zbekchada berish uchun so'z morfem tarkibini "yarim kalkalash" usulidan foydalangan bo'lib, ularni *Dahshatus*, *Iblisus*, *Sehrgarius*, *Ohangrabus*, *Mo'jizus* deb nomlaydi.

⁴³ Bu haqda qarang: Игамуратова Д. Болалар саргузашт-фантастик насри ўзбекча таржималарининг ўзига хос хусусиятлари (Н.Носов ва А.Некрасов асарлари таржималари мисолида): Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD) ... дисс. автореф. – Тошкент, 2021. – Б. 19.

Yoki *Bilmasvoy*, *Bilag'on* muvaqqat nomlari garchi so'zma-so'z tarjima namunlari bo'lsa-da, ular asliyatdagi zidlik semasini saqlashi bilan birga *-voy*, *-a(g'on)* kabi vositalarning o'rinli va o'quvchi yoshiga mos tanlangani bilan ahamiyatli. Biroq doim ham muallifning asliyatdagi nom orqali ifodalamoqchi bo'lgan maqsadini tarjima orqali berish imkoni bo'lavermaydi. Bunda tarjimon ba'zan butunlay yangi muvaqqat onomastik birlik yaratishiga to'g'ri keladi. Chunki muvaqqat nomning semantik mazmuni o'quvchiga tushunarli bo'lmasa, matn ta'sirchanligi ta'minlanmaydi.

Ikkinchi bobning uchinchi bo'limida "*Ijodkor munosabatiga ko'ra muvaqqat onomastik birliklar tasnifi*" keltirilgan. Tilshunoslikda onomastik birliklar badiiyati bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda nomlarning bir necha yondashuvlar asosida tasnif qilingani kuzatiladi. Jumladan, L.M.Shetinin poetonimlarni quyidagicha tasnif qilgan: 1) ma'nosi va fonetik shakli personaj xarakter-xususiyati bilan assotsiatsiya hosil qilmaydigan nomlar; 2) tavsiflovchi, ya'ni o'z ma'nosi bilan personajning muayyan belgisiga ishora qiluvchi nomlar; 3) salbiy ma'noga ishora qiluvchi emotsional-ekspressiv, parodiya yo'li bilan hosil qilingan nomlar; 4) assotsiativ nomlar⁴⁴.

Olim nazarda tutgan tavsiflovchi nomlar personajning muayyan belgisi yoki xususiyatini ifodalaydi. Ular ko'pincha qahramon xarakteri, tashqi ko'rinishi yoki yashash sharoitlari haqida ma'lumot beradi. Tavsiflovchi nomlar ma'nosi ism semantikasi orqali yaqqol aks etib turadi. Tasnifdan o'rin olgan navbatdagi salbiy ma'no anglatgan emotsional-ekspressiv poetonimlar orqali esa qahramonga nisbatan salbiy emotsiyalarni ifodalash maqsad qilinadi. Assotsiativ nomlarga xos belgilardan asosiysi ular o'quvchini aniq bir badiiy muhitga olib kirish yoki obraz bilan yaqinlashish uchun yordam beradi.

Bu o'rinda aytish kerakki, tasnif ikki guruhga ajratilganda, maqsadga muvofiq bo'lar edi deb, hisoblaymiz. Ya'ni ikkinchi va uchinchi guruhdagi nomlar baholovchi yoki tavsiflovchi nomlar sifatida birlashtirilsa, tasniflash mantig'iga zarar yetmaydi. Chunki ikkinchi guruhdagi nomlarda personajning muayyan belgisiga ishora qilinishi ta'kidlangan. Salbiy xarakter ham, ijobiy xarakter ham qahramonning biror belgisi hisoblanadi. Shu ma'noda salbiy xarakterdagi emotsional-ekspressiv, parodiya yo'li bilan hosil qilingan hamda ijobiy xarakterdagi nomlar qahramonlarning muayyan belgisiga ishora qiluvchi nomlar doirasida o'rganilishi mumkin.

I.O.Fonyakova poetonimlar tasnifiga quyidagicha yondashgan: 1) denotativ ma'nosiga ko'ra farqlanuvchi nomlar; 2) uzual va okkazional nomlar; 3) real-to'qima; 4) kam qo'llanuvchi-ko'p qo'llanuvchi nomlar⁴⁵.

Mazkur tasnifning uchinchi guruhidagi real va to'qima nomlarga ajratilgani tasnifda takroriylikni yuzaga keltirgan, chunki ikkinchi guruhdagi uzual va okkazional nomlar aynan shu mazmunni ifodalaydi. Shuningdek, tasnifda nomlarning qo'llanilish chastotasiga ko'ra alohida diqqat qaratilganini ma'qullash mumkin. Buni biz faol va nofaol nomlar sifatida tekshirish ham mumkinligini ta'kidlaymiz. Faol qo'llanuvchi nomlar deganda, ikki yoki undan ortiq asarda uchraydigan nom nazarda tutilsa, nofaol nom deganda esa, asosan, okkazional derivatlar nazarda tutiladi. I.O.Fonyakova taklif qilgan tasnif badiiy asardagi har qanday nomni qamrab oladi. Ko'rinadiki, uning tasnifidan muvaqqat onomastik birliklar – kam qo'llanuvchi nomlar sifatida o'rin olgan.

⁴⁴ Щетинин Л.М. Слова, имена, вещи. – Ростов-на-Дону: Издательство Ростовского университета, 1966. – С. 59.

⁴⁵ Bu haqda qarang: Зинин С.И. Введение в поэтическую ономастику // [www.planeta-imen.narod.ru / litonomastika/main.html](http://www.planeta-imen.narod.ru/litonomastika/main.html). Поэтическая ономастика. – С. 13.

S.I.Zinin esa nomlarni turli aspektlarda tasnif qilgan. E'tiborlisi shundaki, olim o'z tasnifida ijodkor tomonidan yasalgan, ya'ni muvaqqat nomlarga alohida e'tibor qaratgan⁴⁶.

O'zbek badiiy matnlaridagi muvaqqat onomastik birliklarni quyidagicha tasnif qilish mumkin:

1. **Muayyan belgi yoki xususiyatga ko'ra tavsiflovchi muvaqqat onomastik birliklar:** *Alomat, Kungaboqarov, Yebto'y masov, To'y mas Qo'ziyevich, Olg'irboy, Yumshoqboyev, Shoshmaqul, Dadilxo'ja, Qoyilxo'ja, Diqqatjon, Xudbiddin, Shudringboyvachcha, Xarajatxon, Egriboy, To'g'riboy, Quvnoqboy, Qahratoniya, Salomobod, Jajman.* Bunday nomlar tilning madaniy va estetik xususiyatlarini o'zida aks ettiradi. Ularning mazmun-mohiyatini bilgan o'quvchi qahramonlarning ham xarakter-xususiyatini yaxshi anglaydi.

2. **Qahramonlarning kasbi va mashg'ulotiga ko'ra tavsiflovchi onomastik birliklar:** *Lug'atxo'jayev, So'zpardoziy, Ma'fkuraxonim, Arbobxonim, Daryobog'lar, Yulduzsanar, Yolg'iz Mergan.* Bunday kasbiy-onomastik birliklar qahramonning asosiy kasbi yoki mashg'ulotiga bog'liq holda yaratilgan nomlar bo'lib, ular qahramon haqida tez va ta'sirli ma'lumot beruvchi poetik vosita hisoblanadi.

3. **Qahramonlarning tashqi qiyofasiga ko'ra tavsiflovchi onomastik birliklar:** *Do'mboqov, Meshpolvon, Jingalakxon, Alvastixonim, Boqizavr, Xurmacha polvon, Quloqvoy, No'xatvoy, Handalak polvon* kabi. Qahramonning tashqi qiyofasiga ishora qilib yaratilgan onomastik birliklar muallifning qahramonga nisbatan munosabati va bahosini yumoristik yo'l bilan ifoda etadi.

4. **Apellyativ ma'nosi nom bilan assotsiatsiya hosil qilmaydigan muvaqqat onomastik birliklar:** Bunday nomlar kinoyaviy ma'noga ega hisoblanadi. Masalan, *G'amxo'rov, Yo'g'onboy* nomlari orqali muallif jamiyatdagi shunday insonlarga tanqidiy munosabatini bildiradi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi "**Muvaqqat onomastik birliklarning baholash vazifasi**" deb nomlanadi.

Bobning ilk bo'limida "*Ijobiy ma'no ifodalovchi muvaqqat onomastik birliklar va ularning badiiy-estetik xususiyatlari*" haqida fikr yuritiladi. Tadqiqotlarda muvaqqat so'zlarning bir necha vazifasi sanalganda, ularning baholash vazifasiga alohida e'tibor qaratiladi⁴⁷.

Muvaqqat nomlarning baholash vazifasi eng asosiy vazifa bo'lib, u estetik vazifaga ham yo'l ochadi. Badiiy matndagi onomastik birliklar bo'yicha olib borilgan izlanishlarda ijobiy yoki salbiy ma'no anglatgan nomlarni qo'llashda ijodkorning badiiy niyati muhim ekanligi aytiladi. Xususan, kabardin yozuvchilari ijodidagi antroponimlarni tadqiq etgan M.A.Kardanova ijobiy obrazlarni ijobiy ma'noli, salbiy obrazlarni esa salbiy ma'noli nomlar bilan atash badiiy matnga xos xususiyatlardan biri ekanini alohida qayd etadi⁴⁸. Olima o'z ishida ayrim yozuvchilar salbiy qahramonlar nomini ongli ravishda ijobiy ma'noli nomlar bilan ataganligi haqida yozadi hamda buni

⁴⁶ Bu haqda qarang: Зинин С.И. Ко'rsatilgan asar. – С. 13.

⁴⁷ Bu haqda qarang: Тўхтасинова О. Ўзбек тилида лексик окказионализмлар ва уларнинг бадий-эстетик хусусиятлари: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент. 2007. – Б. 120

⁴⁸ Карданова М.А. Стилистические функции антропонимов в современной кабардинской прозе: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Нальчик, 2000. – С. 20.

antroponimlarning alohida badiiy-estetik vazifasi sifatida baholaydi. M.A.Kardanova mazkur hodisani *personaj-nom antinomiya* termini bilan nomlaydi⁴⁹.

Muvaqqat onomastik yasalmalarni baholash vazifasiga ko'ra ikki guruhga, ya'ni ijobiy va salbiy ma'no ifodalovchi muvaqqat onomastik birliklarga bo'lib o'rganish mumkin. **Ijobiy ma'no ifodalovchi muvaqqat onomastik birliklar va ularning badiiy-estetik xususiyatlari.** Bunga tavsiflovchi, ya'ni nomning apellyativ ma'nosi asosida qahramon, joy yoki hayvonlarning muayyan ijobiy belgisiga ishora qiluvchi nomlar kiradi. Misollar: *Tongyorug'*, *Manguhayot*, *Manguqut* (U.Azim), *Quvnoqboy* (folk.), *To'g'riboy* (folk.), *Quyoshiston* (M.Yusuf), *Oltiniston* (A.Oripov), *Salomobod* (M.Shayxzoda) va boshq.

Ma'lumki, an'anaviy ismlar mohiyatan insonning ichki va tashqi go'zalligi hamda ijobiy sifatlari bilan bog'liq bo'ladi. Ya'ni yangi tug'ilgan chaqaloqqa ism tanlanayotganda, uning ehtimoliy fazilatlaridan umid qilinadi. Ism ma'nosiga ko'ra yaxshi xislatlar egasi bo'lishi uchun niyat qilinadi. Badiiy onomastikada esa qahramonga tanlanayotgan ism uning muhim ijobiy qirralarini o'zida mujassam etib, kalit vazifasini bajaradi.

Ijobiy ma'noli nomlarning yuzaga kelishi, avvalo, muallif munosabati, uslubi bilan bog'liq bo'ladi. Qolaversa, badiiy matnda ijobiy ma'noli muvaqqat onomastik birliklar inson, joy yoki muhitga nisbatan ijobiy munosabatni ifoda etish maqsadida qo'llaniladi.

Qahramonlar ismlarining muayyan maqsad bilan tanlangani jihatidan U.Azimning "Tong otgan taraflarda" nomli dramatik asari diqqatga molik bo'lib, u xalqning tarixiy xotirasi bilan bog'liq o'ziga xos asar hisoblanadi. Asarda *Manguqut*, *Manguhayot*, *Kunyorug'*, *Yolg'iz Mergan*, *Tongyorug'* kabi muvaqqat nomlar qo'llangan. Mazkur nomlar o'zbek tilining ichki imkoniyatlari asosida hosil qilingan. Shuningdek, nomlarda aks etgan umumturkiy tilning tarovati o'quvchini befarq qoldirmaydi. Masalan, asardagi bosh qahramon bo'lgan ona obrazining nomi *Tongyorug'* bo'lib, u mansub bo'lgan xalqning nomi *Tongli*. Bu ikki nom yasalişida *tong* so'zi muhim hisoblanadi. *Tong* so'zi ham aslida yorug'likni ifodalaydi. *Yorug'* so'zi bilan birikkanda esa barcha tonglarning yorug' bo'lish istagini kuchli ifodalagan. Yorug'lik, oydinlik *tong* so'zi bilan aloqalantirilgan holda ham etnonim, ham antroponim vazifasini bajargan: **Tongyorug': Bilib qo'y, o'g'lim, dunyodagi eng chiroyli xalq Tongli xalqidir.** U.Azim, "Tong otgan taraflarda".

Mahoratli adib qahramonlarining ismi, asosan, uzoq o'tmish bilan bog'liqligi, milliy qadriyat va tafakkur tarzi bilan uyg'unligi jihatidan ham qimmatli. Muallif hech bir qahramonining ismini shunchaki tanlanmaydi. Har biri o'ziga xos ma'no va mazmun bilan to'yingani kuzatiladi: *Manguqut* antroponimi *mangu* va *qut-baraka* so'zlarining sintezidan hosil bo'lgan. *Mangu* so'zi uzoq umrni, abadiyat ma'nosini anglatadi. *Qut* so'zi bilan birgalikda barakaning umr bo'yi davom etishi istagini ifodalaydi: ***Manguqut xarsangga suyanib arang turibdi. Tongyorug' va Kunyorug'larning qo'llarida chaqaloqlari, uning qarshisida tik qotishgan.*** U.Azim, "Tong otgan taraflarda".

Quyidagi misolda *-iston* o'rin-joy oti yasovchi qo'shimchasi ishtirokida hosil qilingan muvaqqat toponim mavjud uzual toponimning yangicha nom bilan talqin etilishga xizmat qilgan hamda bu yozuvchining hududga nisbatan ijobiy munosabatini yanada to'yintirgan:

⁴⁹ Kardanova M.A. Ko'rsatilgan asar. – C. 20.

Qabul ayla qullug'im,

Qadim Quyoshistonim. M.Yusuf, "Quyoshistonim".

Uchinchi bobning navbatdagi bo'limi "*Salbiy ma'no ifodalovchi muvaqqat onomastik birliklar va ularning badiiy-estetik xususiyatlari*" deb nomlanadi. Salbiy ma'no anglatgan emotsional-ekspressiv poetonimlar orqali personaj yoki joy nomiga nisbatan salbiy emotsiyalarni ifodalash maqsad qilinadi. Ular odatda tildagi belgi-xususiyat, harakat-holat bildiruvchi salbiy bo'yoqdor so'zlar orqali yasaladi. Masalan, *xasis* so'zi vositasida yasalgan *Xasisxo'ja* (H.Siddiq) poetonimi yoki *puxta* so'zi asosida hosil qilingan *Puxtayev* familiyasida (Sh.Xolmirzayev) qahramon xarakteri aks etgan. Shuningdek, *to'ymas*, *yulg'ich*, *olibsotar*, *yebto'ymas*, *kemirmoq* kabi fe'l shakllari asosida yaratilgan *To'ymas Qo'ziyev*, *Yulg'ich Olibsotarov*, *Kemirboyev* kabi ism va familiyalar ham shunday badiiy maqsad asosida yuzaga kelgan.

Quyidagi matnda qo'llangan *Xasisxo'ja* muvaqqat antroponimi salbiy ma'noga ega bo'lgan *xasis* so'zi hamda ijobiylikni ifodalaydigan *xo'ja* komponenti birikishidan hosil bo'lgan. Ya'ni ismning *xasis* komponenti o'zbek tilida "juda tejamkor, ziqna" ma'nosini anglatadi. Unga qo'shilgan *xo'ja* so'zi esa diniy mazmunga ega bo'lib, hurmatli shaxs ma'nosida qo'llanadi. Bu o'rinda yozuvchi bir-biriga zid ma'nodagi so'zlardan ism hosil qilib, ziddiyatli va yumoristik qahramon portretini yaratgan. *Xasisxo'ja* yuqoridagi xususiyatlari bilan kinoyaviy mazmunga ega muvaqqat antroponim hisoblanadi: – *Tejamkorligimga endi qoyil qolarsiz, dadasi, – dedi bir kuni xotini Xasisxo'jaga. – O'zimning eski ko'ylagimdan sizga galstuk tikib qo'ydim.*

– *Mutlaqo qoyil emasman. Men sening tejamkorligingga qachon tan berishim mumkinligini aytaymi? Mening eski galstugimdan o'zingga ko'ylak tikib olganingda.* H.Siddiq, "Qoyil emas".

Muvaqqat nom hosil qilinishida davrga bog'liqlik masalasi ham muhim hisoblanadi. Kuzatishlarimizga ko'ra, bu kabi nomlarning aksariyati salbiy mazmundagi nomlar bo'lib, ular jamiyatdagi mavjud muammolar asosida yaratiladi va badiiy matnga ham shu vazifasi bilan olib kiriladi. Biz shu ma'noda "Mushtum" jurnalining 1980 – 1983, 1990 – 1995-yillardagi sonlarini kuzatdik. Ma'lum bir davr oralig'idagi qo'llangan muvaqqat nomlar mazmun-mohiyatiga qiziqdik. Natijalarga ko'ra, masalan, 1990 – 1995-yillar o'tish davriga to'g'ri kelgani hamda bir tuzumning ikkinchi bir davrga o'rni bergani bois ba'zi nomlarda davr in'ikosi seziladi. Shunday nomlardan biri "Mushtum" jurnalining 1990-yilgi sonida qo'llangan *Kungaboqarov* familiyasidir. Ma'lumki, *kungaboqar* fitonimi quyoshga qarab harakatini o'zgartiradigan o'simlikni anglatadi. Mazkur so'z anglatgan ma'no asosida yasalgan *Kungaboqarov* muvaqqat familiyasi orqali esa fikrlarini, hayot tarzini davrga mos holda o'zgartirib yashaydigan odam xarakterining poetik portreti yuzaga kelgan: *Agar bu qishloqning bunchalik serpashshaligini bilganida edi, Kungaboqarov o'lsa ham leksiya o'qigani kelmasdi. "Bilim" jamiyatining beradigan yuz so'midan ham voz kechardi. Biroq unga topshirishdi. Bajarmasa bo'lmaydi. Hozirgi sharoitda kattalar bilan to'qnashuvga olib boradigan mojarolardan uzoqroq yurish kerak, o'zi liqillab turibdi. Oshkoralik deb xodimlarning tap tortmay talab turganini aytmaymizmi?..* A.Abduvaliyev, "Turg'unovning davri" ("Mushtum" jurnali, 1990, 8-son, 7-bet).

Mazkur matnda yana bir holat kuzatiladiki, ya'ni muvaqqat nom tarkibidagi *kungaboqar* so'zi o'z leksik ma'nosini saqlagan holda, yangi ma'nolarga ham ishora qilgan. Natijada nom orqali salbiy ma'no ifodasi yuzaga kelgan. Umuman, badiiy

matndagi soʻz va uning maʼnolari murakkab va oʻziga xos hodisa ekanligi haqida filologlarning juda koʻp mulohazalarini oʻqish mumkin. Bu borada M.Yoʻldoshevning badiiy matnda soʻzning yangi maʼnolar va mazmunlarning ifodachisiga aylanishi haqidagi quyidagi fikrlari diqqatga sazovor: “Soʻz badiiy matnda boshqa soʻzlar va undan katta birliklar bilan munosabatda oʻz leksik maʼnolari bilan bogʻliq holatda muallifning badiiy mahorati natijasi oʻlaroq semantik jihatdan murakkablashadi, xilmal xil kutilmagan maʼnolar va mazmunlarning ifodachisiga aylanadi. Boshqacha qilib aytganda, soʻzning leksik maʼnosi saqlanib turadi, ammo badiiy matndagi munosabatlarga koʻra yana yangi maʼnolarga ham ishora qiladigan boʻladi, soʻz maʼnan serqatlamlik kasb etadi”⁵⁰. Ayni hodisa yuzasidan dunyo filologlarining ham shunday fikrlarini koʻrish mumkin: “Agar soʻzlarda faqat lugʻatda qayd etilgan muayyan maʼnoga boʻlganda edi, – deydi fransuz adabiyotshunosi R.Bart, ikkinchi til, yaʼni badiiy til tilning bunday toʻgʻriligini buzmaganda va undan ozod qilmaganda edi, adabiyot ham boʻlmas edi”⁵¹. Rus filologi Y.N.Tinyanovning obrazli taʼbiri bilan aytganda, badiiy matndagi soʻz “buqalamunga oʻxshaydi, unda har safar nafaqat turlicha nozikliklar, balki baʼzan hatto turlicha boʻyoqlar paydo boʻladi”⁵².

Quyidagi matnda *Gʻizgʻizon* muvaqqat antroponimi personajning laqabi sifatida boshqa qahramonlar nutqida keltirilgan. Sahnaga moʻljallab yozilgan asarlarda bu eng keng tarqalgan usul hisoblanadi. Chunki sahnada muallif jarayonga bevosita aralasha olmaydi. Qahramonlar nutqi orqali muayyan onomastik axborot oshkor qilinganda, nomga nisbatan munosabat ham aniq ifodalangan boʻladi:

Ikkinchi koʻrinish

Gʻizgʻizonning eshigi. Mahalla aktivlari kirib keladi.

1-faol (*chaqirib*). **Gʻizgʻizon, hu, Gʻizgʻizon!.. Iye, haligi... Gʻozivoy! Hoʻ, Gʻozivoyjon!**

Mahalla raisi. *Yaxshiyamki uyda yoʻqqa oʻxshaydi, boʻlmasa naq baloga qolardik.*

1-faol. *Ogʻzimdan chiqib ketdi-da. E, laqabiyam qurib ketsin. A.Jamol, “Gʻizgʻizon”.*

Koʻrinadiki, *Gʻozivoy* ismining *Gʻizgʻizon* tarzida berilishidan salbiy munosabat aniq sezilib turibdi. *Gʻizgʻizon* duch kelgan kishining ustidan boʻlar-boʻlmas igʻvolarni yozaveradigan, xalq orasida “yozuvchi, yumaloq xat yozishga usta” taʼbiri bilan tilga olinadigan kishilarning xulq-atvoriga nisbatan qoʻyiladigan laqab hisoblanadi. Matnda qahramonning asl ismi boʻlgan *Gʻozivoy* antroponimining tovush tarkibi bilan muallif yaratgan *Gʻizgʻizon* antroponimining tovush tarkibidagi *gʻ/z* tovushlarining bir xilligi natijasida ohang yaqinligi yuzaga kelgan. Biroq laqab maʼnosida *Gʻozi* ismi maʼnosiga ishora qilish sezilmaydi. Chunki *Gʻozi* mardlik, durustlik, tantilik, fidokorlik, jangavorlik maʼnolari bilan aloqalantiriladi. Umuman, mazkur laqabni yaratishda qahramonning xulq-atvori, igʻvogarligi, tuhmatchiligi kabi sifatlar asos boʻlgan.

Badiiy matnda salbiy mazmundagi soʻzlarning ijobiy, oʻz navbatida ijobiy maʼnodagi soʻzlarning salbiy tarzda voqelanishi ham kuzatiladi. Masalan, *Maʼnison*, *Maʼquljon*, *Gʻamxoʻrov* kabi antroponimlardagi *maʼni*, *maʼqul*, *gʻamxoʻr* kabi soʻzlar

⁵⁰ Ёўлдошев М. Бадий матн лингвопоэтикаси: Монография. – Тошкент: Oʻzbekiston, 2019. – Б. 13.

⁵¹ Bu haqda qarang: Ржевская Н.Ф. О семиотических исследованиях в современном французском литературоведении / Семиотика и художественное творчество. – М.: Наука, 1977. – С. 79.

⁵² Bu haqda qarang: Структура и функционирование поэтического текста. Очерки лингвистической поэтики. – М.: Наука, 1985. – С. 42.

badiiy matnda salbiy qahramonning nomi sifatida qo‘llangan. Tilshunos Y.Odilov ironiya asosida qarama-qarshi ma’no ifodalashning o‘ziga xos tomonini shunday izohlaydi: “Bunda fikrning ochiqdan ochiq qo‘pol, vulgar tarzda ifodasidan qochib, obyektga bir qadar “pardali” munosabatda bo‘linadi. Bundan ko‘zlangan maqsad nutqiy ta’sirchanlikka erishish hamdir”⁵³. Onomastik birliklarda bu maqsad biroz farqli bo‘ladi. Qahramondagi salbiy xarakter kinoyaviy maqsadda atayin yumshatilib, ularning ismlari ijobiy ma’noli so‘zlardan hosil qilinadi.

Ba’zan asarning boshida qo‘llangan muvaqqat nomning mohiyati asar yakunida ochiqlanadi. Masalan, U.Azimning “Tong otgan taraflarda” asarida qo‘llangan *Manguhayot, Manguqut, Tongli* kabi muvaqqat onomastik birliklarni qo‘llashdan iborat muallif badiiy niyati asarning umumiy g‘oyasidan, asarning butunidan anglashiladi. Bu birliklar anglatgan badiiy ma’noni yoritishda tahlil muayyan parcha orqali emas, balki asarning umumiy mazmuni bilan birga amalga oshirilishiga ehtiyoj yaratadi.

Umuman, badiiy matnda qahramonlar nafaqat ijobiy ma’noli nomlar bilan, balki salbiy ma’noli nomlar bilan ham ataladi. Kundalik hayotda esa salbiy ma’no anglatuvchi nomlar odatda laqablar doirasida kuzatiladi. Shuningdek, muvaqqat onomastik birliklarning baholash vazifasini o‘rganishda badiiy ma’no va badiiy mazmunning o‘rni beqiyos hisoblanadi.

Tadqiqotning “**Muvaqqat onomastik birliklarning lingvopoetik xususiyatlari**” deb nomlangan to‘rtinchi bobida muvaqqat onomastik birliklarning matnlararo aloqadorlikni hamda komik effektini yuzaga keltirish imkoniyatlari, badiiy matndagi muvaqqat antroponimlar, toponimlar, shuningdek, folklor asarlaridagi muvaqqat nomlarning lingvopoetik xususiyatlariga diqqat qaratildi.

Bobning ilk bo‘limida “Muvaqqat onomastik birliklarning matnlararo aloqadorlikni hamda komik effektini yuzaga keltirish imkoniyatlari” yoritilgan.

So‘nggi yillarda lingvopoetik tadqiqotlar ko‘lami kengayishi bilan bir qatorda, ularning mazmun-mohiyatida ham jiddiy o‘zgarishlar, o‘sishlar kuzatilmoqda. Bu tabiiy hol, albatta. Chunki badiiyat masalasi muntazam rivojlanishni taqozo qiladigan hodisa hisoblanadi. Har bir davrning o‘ziga xos estetikasi, dunyoga qarash tarzi va badiiy umumlashmalari bo‘ladi.

Ma’lumki, intertekstuallik adabiyotlararo aloqadorlikning ichki ko‘rinishlaridan biri hisoblanadi. Unda adabiyotning bir manbasida uchragan obraz, nom yoki turli unsurlarning boshqa bir asarda qo‘llanishi, shuningdek, oldingi asarlarni yodga solishi bilan belgilanadi. Buni, albatta, pretsedent birliklardan farqlash lozim. Pretsedent birliklarda mavjudlik, mashhurlik va taniqlilik kabi xususiyatlar inobatga olinsa, intertekstuallikda asosiy e’tibor aloqadorlikka qaratilgan bo‘ladi. Quyidagi matnda *Borsa kelmas* toponimi zamonaviy adabiyotda qo‘llanib, folklor matnidagi shu nom bilan bog‘liq holatlarga ishora qilgan:

*O‘z dardingdan ulg‘ay, o‘z dardingdan o‘s,
O‘zgalar dardidan xino qo‘ymagil.
Senga boshqa bino qo‘ysa, ne chora,
Sen o‘zing o‘zingga bino qo‘ymagil.
O‘zingni hamroh qil yo‘lga chiqqanda,
Nuqson, fazilatni olmagin qarzga.*

⁵³ Одиллов Ё. Ўзбек тилида энантиосемия: Филол. фан. д-ри. ... дисс. – Тошкент, 2016. – Б. 81.

Gar o'zingdan ketsang, barcha manzillar

*Bir kun aylanajak **Borsa kelmasga**. M.Abdulhakim, "Subut".*

Ko'rinadiki, keltirilgan matnda muallifning badiiy niyatiga uyg'un tarzda folklor asarlaridagi "Borsa kelmas" nomiga mazmuniy ehtiyoj mavjud, shuningdek, matnlar o'rtasidagi shakliy-lisoniy bog'lanish esa ertak unsurlari bilan ta'minlagan.

Umuman, folklor asarlari bilan zamonaviy asarlardagi til birliklarining aloqadorligi behad tabiiy bo'lib, bu aloqadorlik xalq og'zaki ijodi materiallarining yashovchanligini ta'minlashga xizmat qiladi. Ayni paytda ular asosida betakror poetik obrazlar hosil qilinadi. Ko'rinib turganidek, folklor matnidagi onomastik birliklar zamonaviy adabiyotda aynan qaytarilayotgani yo'q. Aksincha, yangi ma'no-mazmunlar bilan to'yinib, yangi davr kishisi tafakkuriga moslangan holda badiiy matnga olib kirilyapti. Agar mazkur poetonim asarda shunchaki qo'llanilganda edi, bu eslashga va o'sha matnga aloqador bir unurni tilga olishga xizmat qilardi xolos. Til birligining poetik aktuallashishi uchun ijodkor uning shaklini olib, ichini ham mazmunan boyitishi kerak.

Badiiy matnda bir ijodkor yaratgan nomni boshqa ijodkor ham qo'llashi mumkin. Masalan, A.Qodiriy qalamiga mansub *Tuproqbibi* ismi Tohir Malik tomonidan "Shaytanat" romanida qo'llanadi. Bu borada V.Lopatin ayrim muvaqqat so'zlar ma'lum vaqt o'tgandan so'ng oldingi okkazonal ma'nosiga bog'liq bo'lmagan holda qayta qo'llanishi mumkinligi va bunday hollarda muvaqqat so'z qayta yaratilishi haqidagi fikrlarini bayon qilgan⁵⁴. Ta'kidlash kerakki, mazkur hodisa onomastik birliklar orqali yuzaga keladigan okkazonallikka daxldor emas. Chunki onomastik birliklarda kuzatiladigan bu holat matnlararo aloqadorlikni yuzaga keltirishi bilan farq qiladi. Masalan, quyidagi matndagi muvaqqat nom orqali bevosita "O'tgan kunlar" romaniga ishora qilingan va intertekstuallik yuzaga kelgan: *Atrofga shom qorong'usi bostirib keladir. Kech kuzning izg'irinli nafasi sochlarini asta to'zg'itadir. Juvonning vujudini esa xufton zulumoti bosadir, yurakkinasi muzlaydir, tanasi sovuqdanmi yoxud o'lim sharpasining qo'rquvidanmi yengil titraydir... **Kumushbibi** bo'lmoqni orzu etgan bokira, inju orzulari loyga qorishgan **Tuproqbibi**, undan-da battar qavmda so'nggi nafas sari boradir...* T.Malik, "Shaytanat".

Muvaqqat onomastik birliklarning asosiy vazifalaridan biri sifatida komik effektini yuzaga keltirishini alohida ta'kidlash mumkin. Chunki hajviy matnlarda qahramonlar ismi, familiyasi yoki laqabi orqali kulgi hosil qilish, hajvni yuzaga keltirish bu birliklarning jiddiy estetik vazifalaridan hisoblanadi. Xususan, muvaqqat onomastik birliklar hajviy asarlarda qahramon tabiatiga xos qabariq xususiyatlarni original tarzda ifodalashi bilan alohida lingvopoetik qimmat kasb etadi. Masalan, T.Malikning "Tilla kalamush yoxud Yo'qqulobod hangomalari" nomli kitobidan hajviy qissa va hikoyalar o'rin olgan bo'lib, unda odamlar tabiatidagi ba'zi "fazilatlar" yumoristik usulda ifodalangan. Asarning onomastik ko'lami ham shunga uyg'un holda komik effektini hosil qiluvchi nomlardan tashkil topgan. Ya'ni joylar va kishilarni nomlashda *Janjalqishloq, Yo'qqulobod, Arbobxonim, Yo'g'onbek, Ma'nijon, Falonulla Pismadonxo'jayev, Dumbultoy, Balliqul, Holsizova, Yumalabtortarov* kabi muvaqqat nomlardan foydalanilgan. Demak, hajviy asarlar onomastik ko'lamida ism, laqab, familiya yoki taxalluslar, hatto joy nomlarining, asosan, komik effekt hosil qilishi asosiy o'ringa chiqadi. Bunda qahramonning ismi (laqabi, familiyasi yoki taxallusi)dagi

⁵⁴ Лопатин В.В. Рождение слова // Неологизмы и окказиональное словообразование. – М.: Наука, 1973. – С. 87.

komizmdan asarning butuniga oid badiiy kulgi osongina fahmlanadigan, yozuvchining badiiy niyati qahramonlar ismini ilk marotaba o'qiganda yoki eshitgandayoq ilg'anadigan bo'ladi. O.N.Altuxova ta'kidlaganidek, "badiiy matndagi onomastik birliklar matn ko'lamini, mazmun va uslubini shakllantiruvchi muhim vosita hisoblanadi"⁵⁵. Hajviy asarlarning onomastik ko'lamida komik effektini hosil qiluvchi nomlar yetakchilik qilsa, tarixiy asarlar onomastik ko'lamini, asosan, tarixiy nomlar tashkil qiladi.

Badiiy matnda kulgi qo'zg'atuvchi muvaqqat nomlar odatda qahramonlarning biror jihatiga yoki kamchiligiga ishora qiluvchi belgi va harakat-holat bildiruvchi so'zlar asosida hosil qilinadi. Masalan, "Mushtum" jurnalidagi hajviy asarlarda qo'llangan *Yebto ymasov, Yulg'ich Yutarovich, Tolmas Charchamasov, Qochdinazarov, Pulnazarov, Yumshoqboyev* kabi muvaqqat onomastik birliklarda ma'lum bir kinoyaviy tagma'nolarga ishora qilingani kuzatiladi. Ta'kidlash kerakki, bu kabi nomlar, asosan, yumoristik ruhdagi asarlarda ko'p uchraydi.

Bobning ikkinchi bo'limi "*Muvaqqat antroponimlarning lingvopoetik xususiyatlari*" deb nomlanadi. Dunyo adabiyotining ko'plab mashhur ijodkorlari asar qahramonlarining ismiga jiddiy e'tibor berishgan, qahramonga munosib nom topishni o'ziga xos san'atkorlik deb baholashgan. Jumladan, A.P.Chexov qahramon ismining badiiy asar uchun muhim ahamiyatga ega ekanligini nazarda tutib, shunday yozadi: "Faqat asar qahramonlarining nutqlaridagina emas, balki ularning ismlari va familiyalarida ham chuqur soddalik va hayotiylik bo'lishi kerak. Binobarin, qahramonning nomi asarning g'oyaviy-badiiy mazmunini chuqurlashtirib, uning milliy ruhini, xalqchilligini kuchaytirishda, asardagi obrazlar va voqealarni tipiklashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi"⁵⁶.

Badiiy matnda ko'pincha ism, familiya, laqablar lingvopoetik jihatdan aktuallashtirib keladi. Quyidagi matnda qahramonlar uchun tanlangan muvaqqat nomlar jiddiy poetik yuk olib, matnning ekspressivligini ta'minlagan. Taxallus (*So'zpardoziy*) va familiya (*Lug'atxo jayev*) mohiyati matnni to'liqroq o'qiganda oydinlashadi, ya'ni nomlardagi kinoyaviy maqsad, qahramonga nisbatan piching yaqqol seziladi. Xalq orasidagi noyob so'zlarini to'plab, ular haqida maqola e'lon qilishni xush ko'ruvchi domla *So'zpardoziyning shogirdi Lug'atxo jayev so'zlarning kelib chiqishi, qaysi tilga mansubligini o'rganish bilan shug'ullanadi. Uning quyidagi parchada berilgan Povulg'on, Pungon* kabi joy nomlari (*Povulg'on* – Farg'ona vil. Oltiariq tumaniga qarashli qishloq nomi, *Pungon* Namangan vil. Pop tumaniga qarashli qishloq nomi. *Izoh bizniki. – A.D.*) etimologiyasi haqidagi fikrlaridan ko'rinadiki, lug'atshunos olimning joy nomlari etimologiyasi bilan bog'liq fikrlari ilmiylikdan yiroq, izohlari asossiz. Mazkur antroponimlar qahramonlar portretini yaratishda muhim poetik vosita sifatida ishtirok etgan: – *Povulg'on, Pungon singari joylarning nomi mo'g'ulchada soqchilar qo'rg'onchasi ma'nosini anglatadi degan qarashlarga mendayam shubha bor, – Ulug'bekka uqdirayotgan kepatada so'z qotdi domla So'zpardoziy. – Bahsli fikr bu. Harqalay, biron yangiroq talqin topdingmi?*

⁵⁵ Алтухова О.Н. Поэтонимы-медиаторы в макроконтексте произведений В.Пелевина // Социосфера. – М., 2014. – №3. – С. 50.

⁵⁶ Bu haqda qarang: Шебалов Р.Ю. Ономастическая игра в художественном тексте (на материале ранних рассказов А.П.Чехова): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Екатеринбург, 2004. – С. 28.

*Lug‘atxo‘jaye*v aynan shu savolni ko‘pdan intizorlanib kutgandek, shosha-pisha bosh qimirlatdi: – Topdim, ustoz, topdim. Ishonchim komil, bu qishloq Rusiya hukmdori bo‘lmish Pavel Birinchi yoinki Pavel Ikkinchining sharafiga qurilgan. Tabiiyki, nomini o‘zbekchalashtirib, Paveljon deyishgan. Bora-bora, shevada Povulg‘on bo‘pketgan. Bu gapni eshitib, domla So‘zpardoziy puffa tutaqib ketdi. Pavellar hukmdorligi davrida Turkiston Rusiyaning ta‘sirida bo‘lmaganini aytib, shu oddiygina mantiqni nazardan qochirgani uchun shogirdini astoydil siltab tashladi. Shogirdlari orasida mana shu Lug‘atxo‘jaye sal no‘xtasizroq shakllandi-da. Buxoroning nomi o‘rischadagi “bugorok” so‘zidan kelib chiqmaganmikan, deb ilgariyam hammaga kulgi bo‘lgandi. Mana, yana qovun tushirishiga oz qoldi. A.Obidjon, “Shiliqabiliq qayerda?”

Badiiy matnda muvaqqat antroponimlar birdan ortiq komponentlardan hosil qilinganda, ular bir-birini to‘ldirib, tarkibidagi so‘zlarning ma‘nolari kengayib keladi. Shuningdek, bunday konstruksiyalar qahramon portretini to‘liqroq ifoda etish uchun xizmat qiladi. Mazkur matnda keltirilgan *Xushim Keldiyev* muvaqqat onomastik birligi *xushiga kelmoq* iborasini bo‘laklash asosida hosil qilingani hamda iboraning mazmuni onomastik birlik orqali ifodalangani bilan lingvopoetik qimmat kasb etgan: *Kolxoz kutubxonachisi Xushim Keldiyevga “Ishdan bo‘sh paytlaringizda nima bilan shug‘ullanasiz?” deb savol berishdi. – Rais, muovin buyurgan ishlardan bo‘sh paytlarimda kutubxonani ochib o‘tiranman, – deb javob berdi kutubxonachi. H.Siddiqov, “Bo‘sh paytlarda”.*

Badiiy matnda uchraydigan quyidagi muvaqqat ism-familiyalar ham analitik xarakterda bo‘lib, ular anglatgan ma‘nosiga ko‘ra bir-birini izohlab kelgan. Masalan, *Shakar Palak – shakarpalak* qo‘shma so‘zini bo‘laklash asosida yasalgan hamda qovun turlaridan birining nomiga ishora qilib kelgan; *Yulganboy Obqocharov* –ma‘nosi yaqin so‘zlar asosida yasalgan bo‘lib, poraxo‘r, yulg‘ich obrazga salbiy munosabatni ifodalash maqsadida yaratilgan (bunda *olib qochmoq* fe‘lining og‘zaki nutqda ishlatiladigan shakli tanlangan); *Urug‘ Aymoqov* antroponimi esa yaqinlik, qarindoshlikni ifodalovchi juft so‘z asosida yasalgan; *Yaxshi Yamoniy* – antonimik juftlik asosida yasalgan bo‘lib, undagi *yomon* so‘zining *yamon* tarzida (og‘zaki nutqda ishlatiladigan shaklning) qo‘llanishi va -iy affiksining qo‘shilishi bilan o‘zida kuchli ekspressivlikni namoyon qilgan.

Navbatdagi matnda berilgan *Jonjonboyev* familiyasi ham muallifning individual ijodiy yasalmasi hisoblanadi. Onomastik o‘yin asosida hosil qilingan muvaqqat familiya ironik mazmun kasb etib, istehzoli kulgini yuzaga chiqarishda vosita bo‘lgan: “*Nima, otangnikimi bu yer? Kimsan o‘zi sen?*” – “*Falonchijonman! Familiyam ham kerakmi? Falonchijonboyev! Tug‘ilgan joyim-chi? Qo‘qonjon! Xo‘qandi latif deydilar! Bilib qo‘y, uka!*”. ...*Barzangi homiysi bilan xonaning eng to‘riga borib o‘rnasharkan, jizzakimiz hech o‘zini bosolmaydi: “O‘ziyam “jon”, otasiyam “jon”! Jonjonboyev! Maqtanchoq xo‘roz!” Shu-shu, tog‘ligimizning luqmayi dahani bilan haligi kursdosh “Jonjonboyev” atalib ketdi. E.A‘zam, “Gonoluluga elchi”.* Ko‘rinadiki, *Jonjonboyev* familiyasi qahramonga kursdoshlari tomonidan berilgan bo‘lib, u ism egasining nutqida keltirilgan *Falonchijon, Falonchijonboyev, Qo‘qonjon* kabi so‘zlar tarkibidagi -jon onomastik indikator bilan bog‘liq holda yuzaga kelgan.

Bobning uchinchi bo‘limi “*Muvaqqat toponimlar lingvopoetik vosita sifatida*” deb nomlangan. Toponimlarning badiiy matndagi o‘rni, ijodkor badiiy niyatini yoritishdagi turli vazifalarini o‘rganish bu birliklarning keng imkoniyatlarini ko‘rsatishga yordam

beradi. Ayniqsa, muvaqqat toponimlarning lingvopoetik xususiyatlari o‘ziga xosdir. Tilshunoslikda bu kabi toponimlar onomastik tizimda uchramaydigan, muayyan muallifga xos bo‘lgan hamda boshqa ijodkorlar tomonidan qo‘llanmagan okkazional toponimlar sifatida o‘rganilgan⁵⁷.

Boshqa onomastik birliklar kabi muvaqqat toponimlarning shakllanishi ham mavjud real toponimlarning muayyan qoliplariga muvofiq amalga oshiriladi. Masalan, *-iston*, *-zor*, *-obod*, *-kent* topoidikatorlari orqali hosil qilingan muvaqqat nomlar sifatida quyidagilarni misol qilish mumkin: *G‘uliston* (A.A’zam), *Yo‘qqulobod* (T.Malik), *Donishqishloq*, *Qobiliston* (E.Vohidov), *Aralashqo‘rg‘on* (E.A’zam), *Shag‘alkent*, *O‘salkent* (H.Siddiq).

Badiiy matndagi joy nomlari ma’nosi orqali matn bilan bog‘liq turli voqea-hodisa yoki holatlarga ishora qilinadi. Onomastik qoidalarga ko‘ra, toponim o‘sha hududga xos sifatlar bilan ma’lum ma’noda muvofiq bo‘lishi kerak. Ijodkorlar ham badiiy asardagi joy nomlarida bu muvofiqlikni yanada bo‘rttirib, ta’kidlab ifodalashga harakat qiladilar. A.A’zam tomonidan qo‘llangan *G‘uliston* muvaqqat toponimi asar g‘oyasiga mos yasalgan nom sifatida matn bilan uzviylik kasb etgan. Ya’ni *zanjir*, *qul* kabi ma’nolarni bildiruvchi *g‘ul* so‘zi orqali hosil qilingan *G‘uliston* toponimi asar qatlamidagi mazmuni ifodalashda asosiy vosita bo‘lib xizmat qilgan. Shuningdek, *G‘uliston* muvaqqat toponimining *Guliston* real toponimi bilan ohangdoshlik hosil qilishi matnning ekspressivligini ta’minlagan: “*Bu qayer?*”, *dedim. Xoldori: “G‘uliston”, degan edi, qulog‘imga “Guliston” bo‘lib kiribdi, “Gulistonda yashab turib, O‘zbekistonni bilmaysizlarmi, aqlga sig‘maydi”, degan edim, Xoldori “Yaxshi eshitmadingiz, “Guliston” emas, “G‘uliston”, dedi. “E-e, shoshmang!”*, *dedim-u o‘zim birdan tushungandek bo‘ldim: “g‘ul” – “zanjir” degani, hozir bu so‘zni biz ishlatmaymiz, arxaik, lekin g‘azallarda ko‘p uchratganman, aniq esimda. “Ha-a, G‘uliston, ya’ni Zanjiriston, shuning uchun zanjir taqar ekansizlar-da”, dedim. A.A’zam, “Ro‘yo yoxud G‘ulistonga safar...”*

Tildagi mavjud toponimlarga muqobil shakllar topib, ularni o‘z badiiy maqsadiga muvofiq tarzda qo‘llash ijodkorning poetik mahorati mahsulidir. Masalan, quyidagi matnda keltirilgan *Dong‘iston* muvaqqat toponimi ifoda tiniqligi va o‘tkiriligini ta’minlash maqsadida yaratilgan. Mazkur nom *Dog‘iston* real toponimini esga soladi. Uning strukturasi o‘zgartirgan holda adib yangi ohorli toponim yasagan: *Hovlining bir chetidagi o‘g‘liga atab qurilayotgan chala imoratga tikilgan ko‘yi tushunqiramay turganimni ko‘rib, tog‘amiz alam-iztirob bilan bo‘kirib yubordi: – Bo‘lmasa, kelib mendan ko‘radi-da, jiya-an! – Yo‘g‘-e, tog‘a, jin uribdimi, axir! Amir bo‘lamiz unchalik emas. – Baribir zoti past... Mayli. Lekin, falonchining dong‘i Dong‘istonga ketgan shiyponi yonib ketibdi, desa, kimning jiyani u, deb so‘raydimi mardum – so‘raydi! Shu isnodni qanday ko‘taraman dedim-da, jiyan!* E.A’zam, “Bizning tog‘a”. Shuningdek, bu o‘rinda “*dong‘i olamga ketmoq*” iborasiga analogik tarzda “*dong‘i Dong‘istonga ketmoq*” ham qo‘llangan bo‘lib, ibora tarkibidagi leksemaning o‘zgarishi natijasida hamda uning o‘rni muvaqqat toponim bilan to‘ldirilgani sababli matnning emotsional-ekspressiv kuchi ortgan.

⁵⁷ Спиридонов А.В. Окказиональные топонимы в художественных текстах Василия Аксенова // Речевая коммуникация в современной России: материалы III Международной конференции (Омск, 27-30 июня 2013 г.): в 2 т. Т.1. – Омск, 2013. – С. 243–249; Девятайкина Г.Л. Поэтика пространства и топонимический код в уральской прозе Д.Н.Мамина-Сибиряка: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Екатеринбург, 2009. – С.23.

Badiiy matndagi muhim onomastik vositalardan biri bu *onomastik kodlari*. Onomastik kod – ma’lum bir ismlar, toponimlar, laqablar, tarjima qilinadigan yoki ramziylashtirilgan nomlar orqali ta’sirli axborot uzatish tizimi bo’lib, u madaniy kontekst, ijtimoiy hayot, ijodkor idiositili bilan chambarchas bog’liq bo’ladi⁵⁸. Ta’kidlash o’rinliki, har qanday onomastik kodni yaratish muallif mahoratiga, u kodni yechish esa o’quvchining zehninga bog’liq. Ba’zan ijodkor real joy nomini atayin qo’llamasdan, balki unga xos xususiyatlar asosida o’zi yangi nom yasaydi. Bu turdagi nomlar real toponimlarning ongimizda shakllangan tasavvurlarini qayta fahmlash orqali anglashga imkon yaratadi. Quyidagi matnda qo’llangan *Qahratoniya* poetonimi onomastik kod sifatida *Sibir* real toponimiga ishora qiladi. Ma’lumki, *qahraton* so’zi o’zbek tilida juda kuchli sovuqqa nisbatan ishlatiladigan so’z hisoblanadi. *-iya* esa joy nomini hosil qiluvchi universal topoforantdir. Hosil qilingan *Qahratoniya* nomi muallifning subyektiv munosabatini ifodalaydigan muvaqqat toponim sifatida poetik vazifa bajargan: *Tirik qolgan jangchilar bilan sog’lom qiz-juvonlarni zanjirband etishib, birini qul, birini cho’ri sifatida Qahratoniya degan uzoq o’lkaga haydab ketishdi. Ularning orasida Meshpolvonning dadasi bilan ko’zlari kiyiknikidek chiroyli onasi ham bor edi.* A.Obidjon, “Meshpolvonning sarguzashtlari”.

M.M.Do’stning “Lolazor” romanidagi qo’llangan *Faloniya* muvaqqat toponimi universal toponimik formantlarga uyg’un yasalgan bo’lib, mazmunan noaniq bir mamlakat nomiga ishora qilgan. Matndagi nom bilan bog’liq mavhumlik o’quvchini qiziqtirishi tabiiy. Ma’lumki, tilimizda *falon* so’zi aniq bo’lmagan, noma’lum kabi ma’nolarni anglatadi: falon joy, falon odam, falon ish kabi. Mazkur matnda yozuvchi asardagi joy nomini atayin ochiqalmasdan, umumiy obraz yaratadi. Shuningdek, matnda keltirilgan “tupkaning tagidagi yurtlarga”, “qo’ziqorinday bodrab chiqayotgan davlatlar” kabi ifodalar orqali muallif o’sha paytda yangi paydo bo’layotgan davlatlarning xalqaro doiradagi o’rnini ironik bo’yoqlarda tasvirlaydi: *Endigi safarlar o’zgacha, uyoq-buyoqqa emas, tupkaning tagidagi yurtlarga... Faloniyaga... rasmiy safar bilan... delegatsiya rahbari... turli qabul marosimlari, qirollar-u qirolchalar, vazirlar, saroy a’yonlari, xonimlar... Yaxshiboyev Faloniyaning qaysi qit’ada ekanini eslashga urindi. Lekin eslay olmadi. ...Ajabmaski, Faloniya deganlari keyingi yillarda qo’ziqorinday bodrab chiqayotgan yangi, mustaqil, tinchlikparvar davlatlardan bo’lsa... M.M.Do’st, “Lolazor” romani.*

Badiiy matnda yana shunday muvaqqat toponimlar borki, ular o’zining poetik vazifasi jihatidan e’tiborga molik. Mistik taxayyulga yo’g’rilgan quyidagi matnda qo’llangan *Bo’tan tog’* ma’nosidan bexabar o’quvchi nom bilan asar mazmunidan aloqadorlik izlashga urinadi. Biroq yozuvchi nom mohiyatini asar qatlamida o’quvchiga hech bir qiyinchiliksiz ochib beradi. Asarda tog’ nomi uning dialektal ma’nosiga ishora qilishi bilan birga qahramon hayoti bilan qiyoslangan: *Odamlar uyqudan uyg’onib qarashsa, ovul chetida tog’ paydo bo’lganmish. Uni “Bo’tan tog’”, ya’ni “boshqa joydan ko’chib kelgan tog’” deyishgan ekan. Men ham o’sha tog’ga o’xshab boshqa*

⁵⁸ Bu haqda qarang: Бунеева Е.В. Ономастическое пространство поэм С.А. Есенина: Дисс. ... канд. филол. наук. – Воронеж, 2011; Бушмин А.С. Своеобразие реализма Салтыкова-Щедрина // Художественный мир Салтыкова-Щедрина. – Л.: Наука, 1987. – С. 21–65; Варганова О.А. Англоязычные топонимы и их стилистический потенциал в поэзии: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. 1994; Васильева Н.В. Ономастические стереотипы / Н.В. Васильева // Стереотипы в языке, коммуникации и культуре. – М., 2009. – С. 93–100.

joydan kelgan bir odam edim. Bu yerga ilgari ham ikki-uch marotaba kelgan bo'lsam-da, yot odam bo'lib qolaverdim. S.Vafo, "Bo'tan tog'i".

Tilshunos T.Nafasov bo'tan so'zining Qashqadaryo va Surxondaryo shevalariga mansubligini yozadi va quyidagicha izohlaydi: "Bo'tan. 1. (Jar.) Boshqa. 2. (Chiroqchi) Alohida bo'lak. *Otasidan bo'tan yashaydi*"⁵⁹. Demak, hikoyadagi "bo'tan" so'zining muallif tomonidan "boshqa joydan ko'chib kelgan tog'" deya izohlanishi shu so'z lug'aviy ma'nosi bilan bog'liq, ya'ni "bo'tan" so'zining "boshqa", "alohida" ma'nolarini bildirishi bilan aloqalantiriladi.

Bobning to'rtinchi bo'limi "*Folklor asarlaridagi muvaqqat onomastik birliklar lingvopoetikasi*"ga bag'ishlangan. Folklor asarlarining onomastik ko'lami rang-barang bo'lib, undagi nomlar o'zbek milliy onomastik tizimi an'analarini o'zida namoyon etishi, xalq tafakkuri, hazil-mutoyiba va hayotiy kuzatuvlarning mahsuli sifatida qimmatlidir. Folklorga oid aksariyat kishi nomlari, joy nomlari yoki hayvonlar laqabiga matn maqsadidan kelib chiqib okkazional ma'no yuklanadi. Masalan: *Ultontoz, Yortiboy, Qiron botir, To'g'riboy, Qilichqora, Handalak polvon, Xurmacha polvon, No'xatvoy, Boshmaldoq Dingboy, Qing'irboy, Chalaboy, Quvnoqboy, Baxiloy* kabi muvaqqat nomlar orqali turli tag ma'nolarga ishora qilinadi. Shuningdek, xalq manfaatini himoya qiluvchi qahramonlarning ismlari apellyativ ma'nosiga bog'liq holda estetik vazifaga xoslangan bo'lib, ular kundalik turmushda ishlatiladigan buyumlar va boshqa narsalarning nomiga taqlid qilish, ularga o'xshatish asosida hosil qilingan nomlardir.

Quyidagi matnda qo'llangan *Daryobog'lar, Yulduzsanar* kabi muvaqqat nomlarning oxirgi bo'g'inlari ohangdorlik hosil qilishi o'zbek onomastikasiga xos bo'lgan an'ana, ya'ni o'zaro qarindosh bo'lgan insonlarga uyqash ismlar tanlanishi bilan bog'liq. Shuningdek, *Daryobog'lar, Yulduzsanar, Qilichqora* ertakda favqulodda kuch-qudratga ega bo'lgan qahramonlar ismlari bo'lib, ismlar tarkibidagi so'zlar anglatgan ma'no asosida ularning turli jihatlariga ishora qilingan: *Qadim zamonda, Xorazm yurtida uch og'a-ini bor ekan. Uchalasi ham bir-biriga juda mehribon, bir-biriga jonkuyar ekan. Uchalasining ham himmati bor ekan. Shuning uchun kattasini Yulduzsanar, o'rtanchasini Daryobog'lar, kenjasini Qilichqora deb atar ekanlar. Bu og'a-inilarda yulduzni sanab kimning bor-yo'qligini bilish, daryoni bog'lab qo'yish, qilichi bilan har qanday dushmandan o'ch olish xususiyati bor ekan. "Qilichqora"*.

Ba'zan so'z anglatgan lug'aviy ma'no badiiy matnda kengroq tushunchani ifodalab keladi. Quyidagi askiya namunasida qo'llangan *Ko'rdim* ismi mahorat bilan matnga olib kirilgan. Muvaqqat ismning apellyativ ma'nosi *ko'rmoq* fe'li bilan aloqalantirilishi natijasida komik effekt yuzaga kelgan: "*Bir akaxonimizning to'qqizta qizi bor ekan. O'g'il ko'rsam, yetkazganiga ismini "Ko'rdim" qo'yaman, deb o'ziga o'zi so'z beribdi. Har qalay, niyatiga yetibdi. Akaxonimiz so'zida turib, unga "Ko'rdim" deb ism qo'yibdi. Yillar o'tibdi. Bir kuni ularning uyiga mehmon kelib qolibdi. Oshni endi yeymiz, deb turishgan ekan, chiroq o'chib qolibdi. Mehmon paytdan foydalanib go'shtning kattarog'ini oldiga tortib, endi yeyman deb tursa, mezbon sham olib kelgin demoqchi bo'lib: – Ko'rdim! – deb o'g'lini chaqiribdi. Mehmon bir sakrab tushibdi. O'g'lidan darak bo'lavermagach, akamiz ovozini balandlatib yana: – Ko'rdim! – deya baqiribdi. Mehmon o'g'lining ismini bilmas ekanmi, shoshib-pishib: – Aka,*

⁵⁹ Навасов Т. Қашқадарё ўзбек сўзлари луғати. – Тошкент, 2011. – Б. 62.

baqiravermang odamni sharmanda qilib, bir marta ko'rdim, deganingizdayoq go'shtni joyiga qo'yib qo'yganman! – dermish"⁶⁰. Latifa, lof, askiyada kulgiga sabab bo'lgan jumlaning kashfiyot darajasida baholash mumkin. Zero, so'zning turli ma'nolaridan badiiy maqsadda foydalanish ham muallifning badiiy til mahoratini ko'rsatadi.

Umuman, folklor asarlaridagi muvaqqat nomlar hosil qilinishida turkiy so'zlarning faol ekani, ular ichida tuzilish jihatdan sodda tarkibli nomlar boshqa turdagi nomlarga qaraganda kam miqdorni tashkil qilgani hamda tarkibiy jihatdan qo'shma nomlarni hosil qilishda "onomastik indikatorlar" ularning muhim elementi sifatida ishtirok etgani kuzatildi.

XULOSA

1. Badiiy matnning onomastik ko'lamini real nomlar bilan birga muvaqqat nomlar ham tashkil etadi. Muvaqqat onomastik birliklar muallif tomonidan alohida badiiy maqsadlarni ifodalash uchun yaratiladi va ular poetik aktuallashtirish imkoniyati yuqoriligi bilan ajralib turadi. Bunday birliklar standart onomastik tizimdagi nomlarga nisbatan kuchli ekspressivlikka ega bo'lib, hissiy ta'siri va estetik qiymati bilan matnning ta'sirchanligini sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi. Ularning o'ziga xosligi shundaki, muvaqqat nomlar, odatda, muayyan matn doirasida idrok qilinadi va bir marta qo'llanishga mo'ljallanadi.

2. Muvaqqat onomastik birliklarning muhim lingvopoetik vazifalari quyidagilarda ko'rinadi: 1) badiiy matnda muvaqqat onomastik birliklar o'quvchi diqqatini o'ziga qaratishi, tegishli badiiy ma'nolar bilan to'yinib lingvopoetik qimmat kasb etishi barobarida matnning estetik idrok etilishini yanada qulaylashtiradi; 2) adabiy asarning g'oyaviy mazmuni va shu bilan bog'liq muallif badiiy maqsadini yoritishga xizmat qiladi; 3) ekspressivlik va emotsionallikni yuzaga keltirish uchun yordam beradi; 4) komik effekt, ironik mazmuni hosil qiladi; 5) matnlaro aloqadorlikni ta'minlaydi; 6) obrazlilikni yuzaga keltiradi; 7) baholash vazifasini bajarib, muallifning subyektiv munosabatini ifodalab keladi.

3. Muvaqqat onomastik birliklar real nomlardan qo'llanish ko'lamini, yangiligi, vazifasi, til va nutqda kuzatilishi, subyektiv munosabat ifodalashi, ko'nikilmaganligi bilan farqlanib turadi. Muvaqqat onomastik birliklar baholash vazifasiga ko'ra ijobiy ma'no ifodalagan muvaqqat onomastik birliklar hamda salbiy ma'no ifodalagan muvaqqat onomastik birliklarga ajratiladi.

4. Tilning so'z yasash tizimi muayyan qonuniyatlarga, morfemalarning o'zaro bog'lanish valentligiga asoslanadi. Shu jihatdan, har qanday yasama so'z mavjud so'z yasash qoidalariga asosida yuzaga kelishi kerak. Biroq badiiy matnlarda, xususan, hajviy yoki publitsistik asarlarda, mediamatnlarda shunday so'zlar ham borki, ular mavjud so'z yasash qonun-qoidalariga mos kelmaydi. Mazkur holat muvaqqat so'zlarga xos yasash sifatida tilshunoslikda alohida tahlilni taqozo etadi.

5. Muvaqqat onomastik birliklar ijodiy (badiiy) yasalmalar sifatida ahamiyatli hisoblanib, bunday nomlarning ma'nosi ham, estetik qiymati ham, avvalo, nutqiy vaziyat, matn mazmuni va qurilishi bilan uzviy bog'liqlikda yuzaga keladi. Shuningdek, muvaqqat nomlar odatda onomastik tizimga kiritish uchun emas, balki tasviriy-ta'sirchanlik vositasi sifatida bir marta qo'llash uchun yasaladi. Muvaqqat onomastik

⁶⁰ Абдулла кизиқ нима дейди? – Тошкент: Шарк, 2006. – Б. 5-6.

birliklarning yuzaga kelishida onomastik transformatsiya, onomastik kontaminatsiya, onomastik o‘yin, badiiy tarjima muhim o‘rin tutadi.

6. Muvaqqat onomastik birliklarni tadqiq etish orqali shoir yoki yozuvchilarning badiiy til mahoratini aniqlash, badiiy onomastikadagi nomlarning til onomastik tizimiga o‘tishi yoki o‘tmasligi sabablarini aniqlash, yangi nomlarning yuzaga kelishidagi omillarni belgilash, umuman, nomlarning turli badiiy-estetik xususiyatlarini kashf etish mumkin.

7. Muvaqqat onomastik birliklarga xos bo‘lgan kutilmaganlik, ohorlilik, ta’sirchanlik kabi belgilar badiiy matnning onomastik qatlamdorligini ta’minlaydi. Onomastik qatlamdorlik bu nomga yuklangan turli badiiy vazifalar orqali yuzaga keladi. Ayrim muvaqqat onomastik birliklar oldingi matniga bog‘liq holda qayta qo‘llanishi mumkin. Bunda nomlar orqali matnlaro aloqadorlik yuzaga keladi. Muvaqqat onomastik birliklar shu jihati bilan boshqa muvaqqat so‘zlardan farq qiladi.

8. Muvaqqat onomastik birliklar, shuningdek, barcha nomlar, avvalo, nominativ vazifa bajaradi. Yozuvchi yoki shoir ism, familiya, laqab, joy nomi yoki boshqa har qanday nom yaratar ekan, nom egasini yoki joy bilan bog‘liq tushunchani aniq va ta’sirchan ifodalashga harakat qiladi. Bunda onomastik tizimdagi nomdan emas, balki o‘zlari atayotgan obyektning u yoki bu jihatini ko‘rsatish, shuningdek, nutq maqsadini to‘la ifodalash uchun muvaqqat nomlar yaratiladi.

9. Matnga bog‘liqlik muvaqqat onomastik birliklarning muhim belgisidir. Boshqacha aytganda, muvaqqat onomastik birlik tizimlashgan onomastik birlikdan farq qilib, biron-bir mavzuda, muayyan bir badiiy vaziyat uchun yaratilib, shu doirada xizmat qiladi. Shuning uchun ham uning ishlatilish chegarasi ancha tor bo‘ladi. Ayrim muvaqqat so‘zlar vaqt o‘tishi bilan barqaror so‘zga aylanishi mumkin. Biroq muvaqqat onomastik birlik boshqa muvaqqat so‘zlardan farqli tarzda barqaror onomastik tizimga kirishi faol emas. Chunki bunday nomlarning aksariyati salbiy ma’no kasb etgani kuzatiladi. Ism qo‘yish madaniyati va tamoyillariga ko‘ra salbiy ma’no anglatgan antroponimlar onomastik fondan o‘rin olishi imkonsiz.

10. Badiiy matnda qahramon ismlarining tanlanishi bilan birga uning taqdim qilinishi ham muhim hisoblanadi. Mualliflar qahramonni tanishtirar ekan, o‘ziga xos usullarni qo‘llaydilar. Aksar hollarda nom haqidagi ma’lumotlar muallif-roviiy nutqi orqali taqdim qilinsa, ayrim hollarda qahramonlar nutqi orqali oshkor qilinadi. Muvaqqat nomlar hajviy asarlarda qahramon tabiatiga xos qabariq xususiyatlarni ohorli, original tarzda ta’kidlashi bilan alohida lingvopoetik qimmat kasb etadi.

11. Badiiy matndagi laqablarning barchasida okkazionallik kuzatilmasligi mumkin. Masalan, *Orif cho‘loq* insonning jismoniy nuqsoni uchun berilgan nom hisoblanib, bunda ijodkorlik sezilmaydi. Muvaqqat antroponim sifatida qabul qilinishi uchun g‘ayrioddiylik, ko‘nikilmaganlik, bir martalik va boshqa sifatlarni o‘zida aks ettirgan bo‘lishi lozim. *Xarajatxon*, *O‘rik domla* kabi laqablar esa tom ma’nodagi ijodkorlik mahsuli. Bunda qahramonning fe‘l-atvorini yanada qabariq ifodalash uchun unga mos belgi-xususiyatlarni ifodalovchi so‘zlar asosida muvaqqat nom hosil qilingan.

12. Muvaqqat toponimlarning badiiy matndagi vazifalari ancha keng bo‘lib, mualliflar o‘zlari yaratgan xayoliy makonlariga qo‘ygan nomlari orqali muayyan jamiyat, muhit, ijtimoiy tanqid kabi keng ma’no qatlamlarini badiiy tarzda ifodalaydilar. Xususan, real hayotdagi mavjud joylarga baho berish maqsadi bo‘lgan ijodkor uni atayin

o‘zi yaratgan xayoliy nomlariga yuklaydi. Bunda ijod qilingan nom ma‘nosi muhim ahamiyat kasb etadi.

13. Folklor asarlari hamda zamonaviy asarlar tilidagi birliklarning aloqadorligi behad tabiiy bo‘lib, u xalq og‘zaki ijodi materiallarining yashovchanligini ta‘minlashga xizmat qiladi. Ayni paytda ular asosida betakror poetik obrazlar hosil qilinadi. Folklor matnlaridagi onomastik birliklar ham zamonaviy adabiyotda aynan qaytarilmaydi. Aksincha, yangi ma‘no-mazmunlar bilan to‘yinib, yangi davr kishisi tafakkuriga moslashgan holda iste‘molga olib kiriladi. Bunda poetonim zamonaviy asarlar matnida shunchaki qo‘llanilsa, bu eslashga va o‘sha matnga aloqador bir unurni tilga olishga xizmat qiladi xolos. Til birligining poetik aktuallashishi uchun ijodkor uning shaklini olib, ichini ham mazmunan boyitishi kerak.

14. Dostonlar matnida qo‘llangan onomastik birliklar, avvalo, uning kuylovchisi – baxshi yoki shoirning bilimi, so‘z boyligi bilan ham uzviy bog‘liq. Dostonlar, albatta, kishilarga ma‘lum bo‘lgan qaysidir rivoyat yoki afsonalarga ishora etadi, shulardan oziqlanadi. Mazkur holat folklor asarlari tilidagi kishi ismlariga ham o‘zining jiddiy ta‘sirini o‘tkazadi. Dostonning mazmunini yanada to‘laqonli qilish, qahramonlarning sarguzashtlarini qiziqarli va ishonarli qilish maqsadida yangi obrazlarning nomlari yuzaga keladi. Dostonni ijro qilish jarayonida baxshining o‘zi nomlar to‘qiydi va uni doston syujeti bilan bog‘laydi.

15. Folklor asarlaridagi muvaqqat onomastik birliklarning aksariyat qismi umumxalq leksikasidagi belgi-xususiyat, holat bildiruvchi turkiy asosli so‘zlar vositasida yaratilgan nomlar bo‘lib, ular hozirgi kishi ismlaridan semantik-uslubiy jihatdan farq qiladi. Bu kabi muvaqqat nomlar o‘tmish jamiyatining kundalik moddiy va ma‘naviy, iqtisodiy va siyosiy turmushi, g‘oyalari va intilishlari bilan aloqadordir.

**SCIENTIFIC COUNCIL AWARDING SCIENTIFIC DEGREES
DSc.02/30.12.2019.Fil.46.03 AT THE INSTITUTE OF UZBEK
LANGUAGE, LITERATURE AND FOLKLORE UNDER
THE UZBEKISTAN ACADEMY OF SCIENCES**

INSTITUTE OF UZBEK LANGUAGE, LITERATURE AND FOLKLORE

ANDANIYAZOVA DILRABO RUZIKULOVNA

**LITERARY AND AESTHETIC FEATURES OF TEMPORARY ONOMASTIC
UNITS IN THE UZBEK LANGUAGE**

10.00.01 – Uzbek language

**DISSERTATION ABSTRACT
FOR DOCTOR OF PHILOLOGICAL SCIENCES**

Tashkent – 2025

The theme of DSc dissertation is registered by Supreme Attestation Commission under the Ministry of higher education, science and innovations of the Republic of Uzbekistan under the number B2025.2.DSc/Fil537

The dissertation has been prepared at the Institute of Uzbek language, literature and folklore.

The abstract of the DSc dissertation is posted in three (Uzbek, English, Russian (resume)) languages on the website of Scientific Council (www.tai.uz) and "ZiyoNet" information and educational portal (www.ziynet.uz).

Scientific advisor: **Makhmudov Nizamiddin Mamadaliyevich**
Doctor of Philological science, Professor

Official opponents: **Urazbayev Abdulla Durdibayevich**
Doctor of Philological science, Professor

Mamatov Abdi Eshonkulovich
Doctor of Philological sciences, Professor

Umurzakova Markhabo Egamberdiyevna
Doctor of Philological science, Docent

Leading organization: **Urganch davlat universiteti**

Defense of the Dissertation will take place on "4" deceMBER 2025, at "10" p.m. at a meeting Scientific Council DSc.02/30.12.2019.Fil.46.03 under Scientific Degree at the Institute of Uzbek language, literature and folklore of the Uzbekistan Academy Sciences (address: 100060, city Tashkent, str. Shakhrisabz passage, 5. Tel.: (99871) 233-36-50; fax: (99871) 233-71-44; e-mail: uztafi@academy.uz).

Dissertation could reviewed at the Main Library of the Uzbekistan Academy Sciences (address: 100100, Tashkent, str. Ziyolilar, 13. Tel: (99871) 262-74-58).

The abstract of the dissertation was distributed on "20" NOVEMBER 2025.

(Registry report number 13 on "20" NOVEMBER 2025)

M.H. Khakimov
Deputy Chairman of the Scientific Council
awarding scientific degrees, Doctor of
Philological sciences, Professor

A.M. Khasanov
Secretary of Scientific Council awarding
scientific degrees, Doctor of Philological
sciences, Professor



D.S. Khudayberganova
Chairman of Scientific Seminar at the
Scientific Council awarding scientific
degrees, Doctor of Philological sciences,
Professor

INTRODUCTION (doctoral (DSc) dissertation abstract)

Relevance and necessity of the dissertation topic. The emergence of new trends in world linguistics that study aspects of language related to an individual's worldview and thinking poses important challenges for science. In the process of examining the cognitive-semantic, linguo-poetic, linguo-pragmatic, and linguo-cultural characteristics of a literary text, the need increases to determine the artistic and aesthetic potential of various linguistic units, as well as the degree of their use by the author. This, in turn, necessitates studying the specific features of linguistic units in a literary text.

In world linguistics, it is recognized that onomastic units reflect the centuries-old experience and traditions of a people's history, culture, and language, serve as a means of emotional expressiveness, and possess a high potential for poetic actualization within a literary text. One of the important tasks of linguistics is to identify, on the basis of new scientific concepts, the various functions of names in the formation of a literary text, to reveal their artistic and aesthetic properties, and to analyze these units according to unified interdisciplinary principles.

In Uzbek linguistics, onomastic units have been studied from various perspectives. However, the artistic and aesthetic properties of temporary onomastic units have not been specifically examined. Temporary onomastic units are created by the author to express particular artistic purposes and are characterized by a high potential for poetic actualization. Such units possess stronger expressiveness compared to names in the standard onomastic system and serve to significantly enhance the impact of a text through their emotional influence and aesthetic value. They are also perceived within the framework of a specific text and are intended for one-time use. Temporary onomastic units have their own specific functions and features, which have not yet been studied in a monographic aspect in Uzbek linguistics. The decree of the Head of our Republic Sh.M.Mirziyoyev "On measures to radically increase the prestige and status of the Uzbek language as a state language" also requires the study of our national language using modern research methods. From this point of view, the in-depth scientific and theoretical study of the artistic and aesthetic phenomena that arise through temporary onomastic units determines the relevance of the topic.

This dissertation research will serve to a certain extent in the implementation of the tasks set out in the Decrees of the President of the Republic of Uzbekistan No. PD-4947 dated February 7, 2017 "On the Strategy of Actions for the Further Development of the Republic of Uzbekistan", No. PD-5850 dated December 21, 2019 "On measures to radically increase the prestige and status of the Uzbek language as the state language", No. PD-6084 dated October 20, 2020 "On measures to further develop the Uzbek language and improve language policy in our country", No. PD-5847 dated October 8, 2019 "On approval of the Concept for the Development of the Higher Education System of the Republic of Uzbekistan until 2030", Resolution No. PR-308 of October 20, 2025 "On additional measures for the further development of the state language" and other regulatory legal documents related to this activity.

Accordance of the research with the priority directions of development of science and technology of the republic. The dissertation has been completed within the framework of the priority direction of development of science and technology of the republic I. "Ways of formation and implementation of a system of innovative ideas in

the social, legal, economic, cultural, spiritual and educational development of the information society and a democratic state”.

Review of foreign scientific researches on the topic of the dissertation¹.

Internationally, scientific research on the functions of onomastic units in literary texts, their linguopoetic, linguocultural, linguopragmatic, sociopragmatic aspects and semantics is being widely studied in leading scientific centers and higher educational institutions of the world, and various fundamental and applied studies are being conducted within the framework of the topic. The International Council on Onomastics (ICOS), the American Onomastic Society (ANS), the European Onomastic Society (SLO), the Russian Onomastic Center, the Leipzig-German Language Research Institute in Germany, and the Institute of Uzbek Language, Literature and Folklore of the Academy of Sciences of Uzbekistan are considered leading research centers in this area. Onomastic research is also being conducted in prestigious higher educational institutions of the world, including Sorbonne University (France), Oxford University (Great Britain), Harvard University (USA), Peking University (China), Voronezh Pedagogical University (Russia), Ege University Institute of Turkic World Studies (Turkey), Donetsk State University (Ukraine), Urgench State University (Uzbekistan).

As a result of research on the artistic and aesthetic properties of onomastic units in literary texts and thereby determining the possibilities of language, the following scientific achievements have been achieved in world and Uzbek linguistics: the functions of temporary onomastic units in literary texts have been revealed (University of Freiburg), the linguopoetic and linguoculturological properties of onomastic units have been established (Donetsk State University), the ability of onomastic units to enhance speech has been revealed (Sophia University; University of Tokyo, Japan), the artistic and aesthetic functions of onomastic units have been identified (Kazan Federal University), and the specific features of the onomastic scope of the works of Uzbek classical writers have been studied (Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi).

The level of study of the problem. The study of onomastic units, one of the important issues of linguistics, has not escaped the attention of linguists around the world. In this regard, a number of scientists, such as A.A.Reformatsky, S.P.Weinstein, V.A.Nikonov, N.V.Podolskaya, E.M.Murzaev, V.N.Toporov, Y.A.Karpenko, A.V.Superanskaya, A.E.Mitroshkina, V.U.Makhpirov, E.U.Omakaeva, have made a worthy contribution to the development of this field with their fruitful work.² In recent years, onomastic units have been studied in various aspects. I.V.Vasilyeva, E.N.Mikhailova, O.V.Sheverinova and others have focused on the stylistic, linguo-

¹ Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi quyidagi manbalar asosida amalga oshirildi: www.utexas.edu, www.berkeley.edu, www.northwestern.edu, www.bu.edu, www.ecu.edu.au, www.unice.fr/en, www.u-bordeaux.com, www.lang.ox.ac.uk, www.english.pku.edu.cn, www.sophia.ac.jp/eng, www.u-tokyo.ac.jp/en, www.bsu.edu.az, www.msu.ru, www.bashedu.ru, www.kaznu.kz, www.navoiy-uni.uz.

² Реформатский А.А. Топономастика как лингвистический факт. “Топономастика и транскрипция”. – М., 1964; Вайнштейн С.П. Личные именные термины родства и прозвища у тувинцев // Ономастика. – М.: Наука, 1969; Суперанская А.В. Общая теория имени собственного. – М.: Наука, 1973; Никонов В.А. Имя и общество. – М.: Наука, 1974; Митрошкина А.Э. Бурятская антропонимия. – Новосибирск, 1987; Подольская Н.В. Словарь русской ономастической терминологии. – М., 1988; Махпиров В.У. Имена далеких предков. – Алматы, 1997; Омакаева Э.У. Триада “язык – культура – этнос” сквозь призму антропонимии: калмыцкие личные имена в контексте буддийской культуры // Вестник Калмыцкого института гуманитарных исследований РАН. – №2. – М., 2008.

cultural, linguo-pragmatic, socio-cultural characteristics of onomastic units,³ while scientists such as A.Bem, V.N.Mikhailov, E.B.Magazanik, L.I.Kolokolova, S.I.Zinin, D.Lamping, G.B.Bakastova, C.Dolny, V.M.Kalinkin have highlighted the functions of names in literary texts.⁴

Temporary names are unique, and by studying them, one can reveal the individual style of a writer or poet as well as the potential of artistic language. In recent years, a number of studies have been conducted in this area within world linguistics.⁵ The wide proliferation of works on this topic has led to the formation of onomapoetics – a field that studies the art of onomastic units.

In Uzbek linguistics, onomastic units have been studied in various aspects in the research of E.Begmatov, Z.Dusimov, N.Mahmudov, T.Nafasov, G.Sattorov, I.Khudoynazarov, D.Khudoyberganova, and D.Yuldoshev.⁶ In an article by R.Kungurov and R.Muminova, devoted to the study of the stylistic features of anthroponyms used in Uzbek fiction and satirical magazines, it is stated that anthroponyms created by writers

³ Васильева И.В. К стилистике имени собственного: ономастические приёмы // *Reslinguistica*. – М.: Academia, 2000; Xalqov F.R. Azərbaycan dilinin folklor onomastikasi. Filol. elm. d-ri. ...diss.– Bakı: Az.MEA, 2001; Чигирева А.В., Бондарь В.А. Стилистическая функция антропонимов в романах Ч.Диккенса // Восточноукраинский лингвистический сборник: сб. науч. тр. Вып. 7. – Донецк, 2001; Hüseynova H.E. Səməd Vurğunun bədii əsərlərində onomastik vahidlərin linqvistik xüsusiyyətləri: Filol. elm. nam. ... diss. – Bakı: ADPU, 2002; Mikayilova Ə.N. Onomastik vahidlərin üslubi imkanları. (XIX əsrin ikinci yarısında yaranmış nəsr əsərlərinin materialları əsasında linqvistik tədqiqat). “Memar Nəşriyyat–Poliqrafiya” MMC. – Bakı, 2008; Шеверинова О.В. Социопрагматический подход к исследованию литературных онимов. – М.: Ученые записи, 2018.

⁴ Bem A. Личные имена у Достоевского // Сборникъвъ честь на проф. / Л.Милетичъ. – София, 1933; Михайлов В.Н. Собственные имена персонажей русской художественной литературы XVIII и первой половины XIX в., их функции и словообразование: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 1956; Магазаник Э.Б. Поэтика имен собственных в русской классической литературе: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Самарканд, 1967; Колоколова Л.И. Ономастика в художественной речи А.П.Чехова: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Киев, 1970; Зинин С.И. Имена персонажей в художественной литературе и фольклоре / С.И. Зинин, А.Г. Степанов // Антропонимика. – М., 1970. – С. 330–355; Lamping D. Der Name in der Erzählung: Zur Poetik des Personennamens. – Bonn, 1983; Бакастова Г.В. Имя собственное в художественном тексте // Русская ономастика. – М., 1984. – С. 23–27; Dolny C. Literarische Funktionen der Personeneigennamen in den Novellen und Erzählungen von I. S. Turgenev. Bern e.a. 1996 // *Slavica Helvetica* 51; Калинин В.М. Поэтика онима. – Донецк, 1999; Shu muallif. Теоретические основы поэтической ономастики: Автореф. дисс. ... д-ра филол. наук. – Киев, 2000.

⁵ Касьяненко Н.Е. Отонимные окказионализмы и окказиональные онимы в русском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Днепропетровск, 1991; Бонджолова В.Ц. Окказионализми от собствени имена. В Състояние и проблеми на българската ономастика. – Велико Търново: Изд-во Великотърн университета. 2001. – С. 228–235. That author. Окказиональные трансформации антропонимов как инвективная лексика. *Медиалингвистика*, 7 (3), 357–367. 2020. <https://doi.org/10.21638/spbu.22.2020.30>; Шебалов Р.Ю. Ономастическая игра в художественном тексте (на материале ранних рассказов А.П.Чехова): Автореф. дисс. ... канд. фил. наук. – Екатеринбург, 2004; Фомин А.А. Литературная ономастика в России: Итоги и перспективы // Вопросы ономастики. – №1. – Екатеринбург: Издательство Уральского университета. 2004. – С. 108–120; Пулина Е.А. Окказиональные имена собственные в романе Дж. Джойса “Улисс” и их межъязыковая передача // Пермский государственный фармацевтический вестник. 2007. – №3. – С. 195–198; Астафьев А.Ю. Художественные функции окказионализмов: Дисс. ... канд. филол. наук. – М., 2007; Яковенко Н.С. О некоторых особенностях окказиональных антропонимов в английских романах В. В. Набокова // МНКО. 2011. – №2. – С. 48–50.

⁶ Бегматов Э. Антропонимика узбекского языка: Автореф. дисс. ... канд. фил. наук. – Ташкент, 1965; Shu muallif. Антропонимияни тадқиқ қилишнинг социолингвистик аспекти // Ўзбек тили ва адабиёти. 2011. – №4. – Б. 23–30; Дўсимов З. Хоразм топонимлари. – Тошкент: Фан, 1985; Сатторов Ф. Ўзбек исмларининг туркий қатлами: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1990; Нафасов Т., Нафасов Ш. Атоқли отларга хос умумий хусусиятлар // Жой номлари – халқ тили ва маданиятининг нодир мероси. – Навоий, 1998; Худойназаров И. Антропонимларнинг тил луғат тизимидаги ўрни ва уларнинг семантик-услубий хусусиятлари: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1998; Маъмуров Н. Маърифат манзиллари. – Тошкент: 1999; Shu muallif. Тил тилсими тадқиқи. – Тошкент: Mumtoz soʻz, 2017; Худойберганова Д. Ўзбек тилидаги бадиий матнларнинг антропоцентриқ талқини: Филол. фан. д-ри. ... дисс. – Тошкент, 2015; Shu muallif. Лингвостилистиканинг тадқиқ объекти хусусида / Ўзбек тилшунослигининг долзарб муаммолари. – Тошкент, 2018. – Б. 60–65; Д.Юлдашев. Атоқли отларнинг антропоцентриқ тадқиқи: Филол. фан. д-ри. (DSc) ... дисс. – Тошкент, 2021.

and poets serve to increase the impact of the text.⁷ E.Kilichev also paid attention to anthroponyms in literary texts in his research, and the scientist deeply studied the stylistic and semantic features of anthroponyms in the works of S.Ainiy.⁸

